

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUSTA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**133 – MG` GURUHI TALABASI
ZARIFOV JO‘RABEK MURATOVICHNING**

**5111600 “MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA‘LIMI” YO‘NALISHI BO‘YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH
UCHUN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: ABDULHAMID CHO‘LPONNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR
DIALEKTIKASINI MUJASSAMLASHISHI.**

ILMIY RAHBAR:

F.F.D. DOTS. M. XAJIYEVA

URGANCH- 2017

Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX

(fakultet nomi)

MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI

(kafedra nomi)

**ABDULHAMID CHO‘LPONNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR
DIALEKTIKASINI MUJASSAMLASHISHI.**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

J.Zarifov

Rahbar :

f.f.d. dots. M. Xajiyeva

Urganch - 2017

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX

(fakultet nomi)

MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO‘YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

- 1. Talaba Zarifov Jo‘rabek.** Universitet rektorining «233-T §6»-sonli 19 dekabr 2016 yil buyrug‘i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **Abdulhamid Cho‘lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi** mavzusi tasdiqlangan.
- 2. Kafedra majlisining qaroriga binoan.** f.f.d. dots. M.Xajiyeva bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
- 3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish- kirish, 2 ta bob, 6 ta qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.
- 4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig‘ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.
- 5. Bitiruv malakaviy ishga** _____

ilova qilinadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2016 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2017 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2017 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2017 yil aprel
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2017 yil aprel

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. M.Xajiyeva

Bajaruvchi talaba:

J.Zarifov

2016 yil «19» dekabr

Topshiriqlar rejasini va jadvali kafedra majlisida 2016 yil tasdiqlandi. (№ 8-sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: t.f.n.dots. U. Sheripov

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba:

Talaba: Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Abdulhamid Cho‘lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi.”

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 75 sahifa

Tushuntirish qismi: 61 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan birinchi kunlardayoq xalqimiz tarixiy - madaniy merosini qayta tiklash va undan jamiyatni ma’naviy yangilashda unumli foydalanish bosh vazifalardan biri deb e’lon qilindi. Chunki «jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an’analar, tegishli shart - sharoit, tafakkur maktabi, madaniy - ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik va ma’rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim.»¹ Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimov har bir kishi, millat, xalq o‘z tarixini bilishni istaydi, shuning uchun olimlarimiz o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi, o‘zligi, ma’naviyati va madaniyati to‘g‘risida ilmiy yaxlit konsepsiya yaratishlari zarur deb ta’kidlaydi. «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag - tomirigacha nazar tashlaymiz.»²

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Zarifov Jo‘rabek barcha fanlarni to‘la o‘zlashtirib, ularni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmasiga ega.

¹Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.: Ўзбекистон, 2010.- 25 Б.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. - Т.: Ўзбекистон, 1999. -144 б.

Bitiruvchi talabning mustaqil ishini bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari maqsadga muvofiq. Zarifov Jo‘rabek o‘zi mustaqil ishlay oladi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O‘zining mutaxassisligi bo‘yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o‘z ustida muntazam ishlaydi. Muomalasi yaxshi, ishga mas’uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda diplomant O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning asarlaridan metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiya, matbuot va internet materiallaridan muhim manba sifatida foydalangan. Shuningdek, ishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig‘ilishlari materiallaridan ham keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo‘yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to‘la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. Xajiyeva M.

2017 yil «29 » aprel

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
YO'NALISHNING 133 GURUH TALABASI
ZARIFOV JO'RABEKNING BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA
T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Abdulhamid Cho'lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi”

Malakaviy ishning hajmi. 15875 soʻzdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 61 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: -

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy oʻrganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi oʻz aksini topgan boʻlib, toʻla talabga javob berdi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan toʻla asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham koʻrsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari koʻrsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi:

N.Maxmudova

Viloyat xalq ta'limi pedagog hodimlarni
malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti

2017 yil 31 may

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH
MEZONLARI**

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishining bitiruvchisi Zarifov Jo'rabekning **"Abdulhamid Cho'lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi"**

__iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi O'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori **Mustaqillik ma'naviyatining rivojlanishida axloqiy madaniyat rolining orta borishi** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2017 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: J.Zarifov

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “Abdulhamid Cho‘lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi”

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: f.f.d. dots. M.Xajiyeva

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017-yil 2-iyunda o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisiga tavsiya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib N. Maxmudova tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo‘yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. dots. O.Shixov

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**“MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI”
KAFEDRASI**

**MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI
YO‘NALISHI 5111600 TA’LIM BAKALAVR**

Tasdiqlayman

fakultet dekani _____t.f.n. O.Shixov

“ ____ ” _____2017 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Zarifov J.

**Ishning mavzusi: Abdulhamid Cho‘lponning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida
milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini mujassamlashishi**

19 dekabr 2016 yil universitet rektorining “233-T §6” sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____2017 y.

3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati.

4. Ishning maqsadi: - Abdulhamid Cho‘lpon ijodining falsafiy tafakkurni
shakllantirishdagi ahamiyati hamda g‘oyaviy-ma’naviy asoslarini g‘oyaviy
jihatdan tadqiq etishdan iborat.

5. Chizma materiallar ro‘yxati:_____

**6. Maslahatchilar: f.f.d., dots. M.Xajiyeva, t.f.n.U.Sheripov, dots.
N.Maxmudova**

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	22.12.2016	16.01.2017
Abdulhamid Cho'lpon merosining nazariy-g'oyaviy asoslari	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	20.01.2017	14.02.2017
Abdulhamid Cho'lponning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	18.02.2017	14.03.2017
Abdulhamid Cho'lpon falsafiy dunyoqarashi shakllanishining ob'ektiv shart-sharoitlari	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	15.03.2017	15.04.2017
Abdulhamid Cho'lponning qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashishi	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	20.04.2017	11.05.2017
Cho'lpon ijodida Sharq va G'arb muammolarining falsafiy tahlili. Cho'lpon falsafasida xalqchilik va milliy o'ziga xoslik masalasi	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. N.Maxmudova	12.05.2017	02.06.2017

Ishga taqriz yozuvchi: Viloyat xalq ta'lim pedagog xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti **N. Maxmudova** _____

7. Ilmiy rahbar: f.f.d. dots. M.Xajiyeva _____

BMI bajaruvchi talaba: J.Zarifov _____

Kafedra mudiri: t.f.n.dots. U.Sheripov _____

MUNDARIJA:

	KIRISH.....	2-4
	ABDULHAMID CHO‘LPON IJODINI	
I-BOB	O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	
1.1.	Abdulhamid Cho‘lpon merosining nazariy-g‘oyaviy asoslari.....	5-11
1.2.	Abdulhamid Cho‘lponning ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari.....	11-18
1.3.	Abdulhamid Cho‘lpon falsafiy dunyoqarashi shakllanishining ob‘ektiv shart-sharoitlari.....	18-22
	ABDULHAMID CHO‘LPON ASARLARIDA MILLIY	
II-BOB	VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI AKS ETISHI.....	
2.1	Abdulhamid Cho‘lponning qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashishi.....	23-31
2.2.	Cho‘lpon ijodida Sharq va G‘arb muammolarining falsafiy tahlili.....	31-44
2.3.	Cho‘lpon falsafasida xalqchilik va milliy o‘ziga xoslik masalasi.....	44-54
	XULOSA.....	55-57
	FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR...	58-61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy-falsafiy qadriyatlar va ma'naviy merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Chunki, qadriyat va tarixiy meros millat ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim mezon hisoblanadi. Chunonchi, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotini belgilagan mutafakkirlarning qarashlari va ta'limotlari ham ana Shu mezonning tarkibiy qismidir. Zero birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Chindan ham tariximizning qaysi davrini olmaylik yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini xalqimiz dahosining o'chmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Isoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar fidoiy insonlarning o'z shaxsiy manfaati, xuzur-halovatidan kechib el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi»¹.

Mazkur fikr barcha ishlar qatori falsafiy ilmida ham ajdodlarimiz ma'naviy, ma'rifiy merosini ilmiy o'rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yadi. Ana Shundan kelib chiqqan xolda ishning dolzarbligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lidagi imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatda ma'rifatparvar ziyolilarning, xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodini o'rganish muhim ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning qarashlarida ozodlik, istiqloq, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi yuksak axloqiy g'oyalarni faqat

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -49 б.

adabiyotshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etish Choʻlponning maʼnaviy olamini toʻlaqonli yoritish imkonini bermaydi.

Ikkinchidan, Shoʻrolar davrida Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Elbek, Choʻlpon, Usmon Nosir va boshqa Shu kabi maʼrifatchi-jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari oʻrganilgan. Biroq, ishlarning aksariyatida ular millatchilik, panturkchilik gʻoyalar “targʻibotchisi” sifatida falsafiy ijod jarayonidan ajratib tashlandi. Bu xolat pirovardida jadid-maʼrifatchilarining ilmiy merosiga nisbatan bir tomonlama salbiy munosabatning shakllanishiga olib keldi.

Uchinchidan, Choʻlpon oʻtgan asrning boshlarida oʻzbek sovet adabiyotida birinchilardan boʻlib, barmoq vaznida jozibali sheʼrlar, qoʻshiqlar yaratgan falsafiy soʻz ustasi hisoblanadi. Biroq, uning ijodini faqat poeziya bilan chegaralash mumkin emas. U bir vaqtning oʻzida ham Mutafakkir, ham dramaturg, ham sanʼatshunos, ham adabiyotshunos hamda zukko tanqidchi sifatida ham ijod qildi. Shu maʼnoda bugungi maʼnaviy yangilanish jarayoni Abdulhamid Choʻlponning gʻoyaviy-maʼrifiy ijodini maʼnaviy kontekstda oʻrganishni taqazo etmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-gʻoyaviy hamda axloqiy mohiyati va unda Abdulhamid Choʻlpon ijodining oʻrni masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan ishlar. Bu ishlar G.T.Mahmudova¹, Sh.O.Madaeva², M.Q.Nurmatova³, B.M.Ochilova⁴, L.A.Muhammadjonova⁵ kabi olimlarning ilmiy ishlarida oʻz aksini topgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Abdulhamid Choʻlpon ijodining falsafiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati hamda gʻoyaviy-maʼnaviy asoslarini gʻoyaviy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

¹ Жалолов А.А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XX аср охири ва XX аср бoshлари). Автореф. дис. ... филол. фан. докт. –Тошкент: ТошДУ, 1994. – 40 б.

² Мадаева Ш.О. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: Автореф. дис. ... фалс. фан. ном. – Тошкент: ЎзРФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1996. –27 б.

³ Нурматова М.Қ ХҲII-XIX асрларда Ўзбекистонда эстетик тафаккур тараккийси (Ўзбек мумтоз шоирлари ижоди мисолида). Дис. ... фалс. фан. ном. –Тошкент: ЎзРФА И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1994. –148 б.

⁴ Очилова Б.М. Аждодлар меросига ихлосмандлик ва шахс маънавий-ахлоқий камолоти. Автореф. дис. ... фал. фан. докт. –Тошкент: ЎзМУ, 2005. – 44 б.

⁵ Муҳаммаджонова Л.А. Жадид маърифатпарвар шоирлари – Анбар Отин ва Дилшод Барнонинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари: Автореф. дис. ... фал.фан.ном. –Тошкент: ЎзМУ, 2005.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- tarixiy manbalar va rasmiy hujjatlar asosida Cho‘lponning ilmiy ijod yo‘lini ob’ektiv yoritib berish;
- Cho‘lpon dunyoqarashining shakllanishidagi ma’rifiy omillarni taxlil qilish;
- jadid-ma’rifatchilik harakatining g‘oyaviy asoslarini Cho‘lpon ijodi orqali ijodi orqali ko‘rsatib berish;
- Cho‘lpon ijodidagi g‘oyaviy-ma’naviy asoslarning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;
- Cho‘lpon ijodining xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi ahamiyatini faktik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berish;

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti va predmeti. Ishning obektini - Abdulhamid Cho‘lpon ijodiy faoliyatidagi madaniy tamoyillar va g‘oyalar, ishning predmetini - Abdulhamid Cho‘lpon g‘oyasining ma’rifiy asoslarini belgilovchi asosiy omillar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish metodlari – dialektikaning tarixiylik va mantiqiylik, ob’ektivlik va qiyosiy tahlil, konkretlik va umumlashtirish, kuzatish va ilmiy bilish metodlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari.

Prezidentimiz ma’ruzalari va birinchi prezidentimizni asarlari, Respublika Oliy Kengashi xujjatlari matnida o‘z ifodasini topgan. Ajdodlarimizning ma’naviy-ahloqiy g‘oyalari bitiruv malakaviy ishimizning tub uslubiy asosi bo‘ldi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, ikkita bob, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”dan iborat. Matnning umumiy hajmi 74 sahifadan iborat bo‘lib kirish va tushuntirish qismi 60 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. ABDULHAMID CHO‘LPON IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. ABDULHAMID CHO‘LPON MEROSINING NAZARIY- G‘OYAVIY ASOSLARI

Har bir ulug‘ adib va san’atkorning hayot yo‘li faqat uning shaxsiy faoliyati, umri va taqdirinigina emas, balki u mansub bo‘lgan millat, yashagan zamon silsilalarini ham in’ikos ettiradi. Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va ijodi bunga yorqin misoldir.

Ma’lumki, Cho‘lpon «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» kabi taxalluslar bilan ijod qilgan. Uning tug‘ilgan yili haqida ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Jumladan, Cho‘lpon bilan hamkor va do‘st bo‘lgan Vasiliy Yan uning tavalludini 1897 yil deb ko‘rsatadi.¹ Biroq, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov Cho‘lpon 1893 yilda Andijonda savdogar oilasida tug‘ilgan², deb yozadi. Shuningdek, Mutafakkirning singlisi Foiqa Sulaymon qizining o‘g‘li O‘.Mirzaxo‘jaev «Onamizning guvohlik berishicha, akasi Cho‘lpon 1898 yilda tug‘ilgan, uning yili sak - it bo‘lgan. Andijon zilzilasi paytida (1902 yil), deb eslaydi onamiz, – tog‘ang to‘rt yashar bola ekan. Ammo hujjatlarda nechanchi yil deb yozilgani menga ma’lum emas»³, degan ma’lumotni yozadi. Agar Foiqa Sulaymon qizining 1908 yili tug‘ilganini, akasi dunyoga kelganda o‘zi ancha yosh bo‘lganini e’tiborga olsak, Cho‘lponning tug‘ilgan yili haqidagi ma’lumotlar nechog‘li aniq ekanligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Yunusov - Cho‘lponning otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li (1874-1929) Mutafakkir tabiatli, tadbirli bazzoz va hunarmand bo‘lgan. U dehqonchilik bilan shug‘ullanishdan tashqari «Rasvo», «Vola» taxalluslari bilan she’rlar ham yozgan. Bu borada uning qizi Foiqa Sulaymonova qo‘lida saqlanib qolgan qo‘lyozma devon dalolat beradi. Sulaymonqul bazzoz o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakati -

¹ Қаранг: Большая Советская Энциклопедия. –М.: 1994. – 684 с.

² Қаранг: Шарафиддинов О. Ижод йўли // Ёшлик. –Тошкент, 1997. - №10. – Б. 48-49.

³ Қаранг: Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: «Шарк» нашриёт-матбаа акционерлик компанияси Бош тахририяти, 2004. – 204 б.

jadidchilikka hayrixoh bo'lgan va 1914 yildan boshlab «Sadoi Farg'ona» gazetasining Qo'qonda nashr etilishiga yaqindan yordam bergan. Abdulhamidning onasi Oysha aya savodli bo'lmasa-da o'tkir zehnli, nozik tabiatli, xalq og'zaki ijodini chuqur bilgan ayol bo'lgan¹.

Abdulhamidning dastlabki savodi eski maktabda chiqadi. U yashagan davrda Turkistonda rus-tuzem maktablari ochila boshlagan va unda dunyoviy ilmlar haqida ma'lumotlar berilganligi uchun mahalliy xalq vakillarining tushungan oilalari o'z farzandlarining istiqbolini o'ylab ana shunday maktabga e'tiborlarini qaratadilar. Jumladan, Cho'lpon ham bu maktablarda o'qitilgan rus tili va dunyoviy fanlarga qiziqib o'z bilimini davom ettirish maqsadida Toshkentga kelib o'qiydi. Uning rus tili bilan birga arab, fors-tojik va turkiy tillar bo'yicha savod chiqarishga ishtiyoqi baland edi. Bunday ko'p tillilik Cho'lponga falsafiy asarlarni aslida o'qish va mutolaa qilish imkonini berdi. Bu borada «Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o'qir edi,— deb yozadi o'z xotiralarida M.Muhammadjonov, - Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qib turar edi»².

Shuningdek, adabiyotshunos S.Mamajonov Cho'lponning hind faylasuf-adibi Rabindranat Tagor haqida maqola yozish uchun ingliz tilidagi Qomuslar bilan ham tanishgani haqida ma'lumotlarni keltirib, bu «Cho'lponning inglizchani biroz tuShunganini yoki do'stlari yordamida ingliz nashrlaridan material qidirganidan dalolat beradi»³, - degan fikrni aytadi. Keyinchalik Cho'lponning til bilishini ham ta'na qilishganida: «Men klassik asarlarni ko'p o'qiyman. Fors Mutafakkirlarining eng go'zal narsalarini yozib olganman. Shuni ba'zi bir joylarini o'qib beraman. Agar Shu zararli bo'lsa men buni bo'ynimga olaman. Men Hofiz va boshqa Mutafakkirlarning asarlaridan o'qiyman»⁴, deydi.

¹ Мухаммаджонов М.. Турмуш уринишлари. —Тошкент: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. — 130 б.

² Мухаммаджонов М.. Турмуш уринишлари. —Тошкент: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. — 130 б.

³ Мамажонов С. Чўлпон ва театр // Нафосат. —Тошкент, 1992. -№ 2. -7 б.

⁴ Қаранг: Чўлпон. Мен миллатчи эмасман (Нашрга тайёрловчи С.Аҳмедов) // Санъат. —Тошкент, 1989. -№8. — 21 б

Eski maktab ta'limi Cho'lponga Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Mashrab, Bedil va boshqa Sharq mutafakkirlarining ijodini chuqur o'rganish imkonini bergan bo'lsa, rus tilini o'zlashtirish orqali A.S.Pushkin, N.V.Gogol, L.N.Tolstoy va M.Gorkiylarning ijod olamidan xabardor bo'lishi bilan o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan tanish va ularga yaqin turishga intildi. Shu bilan birga XX asr boshlaridagi demokratik yo'nalishdagi ijod qilgan Abdulla To'qay, Mirza Fatali Oxundov kabi turkiy tilda qalam tebratgan ijodkorlarning asarlaridan bahramand bo'ldi.

Cho'lpon 1914 yildan boshlab matbuotda faol ishtirok etdi: ilk ijodi «Sadoyi Turkiston» va «Sadoyi Farg'ona» gazetalarida hamda «Oyna» jurnalida ko'rindi. Ma'lumotlarga ko'ra «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914 yil 18 aprel sonida e'lon qilingan «Turkistonli qardoshlarimizga» deb atalgan she'r Mutafakkir ijodining millatparvarlik ruhida yozilgan ilk namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Unda Cho'lpon «millatning fojiiyaviy ahvoli ildizlarini johillikda, o'z foydasini anglamasligiyu istiqbol haqida qayg'urmasligida ko'radi. Farzandlarini ma'rifatli qilish o'rniga koni isrof to'y-hashamlarga, bema'ni ayShu ishratga berilgan, maktab o'rniga choyxonayu mayxonalar bino qilayotgan xalq turmushini mutaraqqiyy etgan millatlar turmushiga qiyoslab, o'rganadi»¹.

Cho'lponning bu kabi turmush tarzi bilan chiqisha olmasligi va xalqni ma'rifat va madaniyatga chorlashi uning ruhi yuksak ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun u dastlab Sho'ro inqilobiga katta umid bog'lagan edi. «Biroq, unutmashlik lozimki, – deb yozadi D.Quronov, – Cho'lponning Oktabr inqilobiga munosabati g'oyat ziddiyatli edi: bir tomondan, inqilobning mehnatkashlarni ozod qilish shiori bilan chiqqani uning qarashlariga – taraqqiy maqsadiga muvofiqday, ikkinchi tomondan, Sho'rolar Turkistonga mustaqillik berish niyatidan yiroqligi unga kundek ravshan edi. Qarashlari nechog'li ziddiyatli bo'lmasin, bu davrda adib uchun istiqlol maqsadi birlamchi

¹ Куронов Д.. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 7 б.

bo‘lib qolaverdi. U millatga eng ko‘p foydasi tegishi mumkin bo‘lgan jurnalistika sohasini tanlab, ezgu maqsadlarining amalga oshishi yo‘lida xizmat qildi»¹.

Cho‘lpon keng qamrovli Mutafakkir, ocherknavis va publitsist sifatida ko‘zga tashlanadi. U «Ishtirokiyun», «Kommunist» (1918) gazetalarda, «Turk Rosta» gazetasida (1920), «Darxon», «Qizil bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» gazetalarda faoliyat olib bordi. Ayniqsa, 1926-1927 yillari Moskvadagi o‘zbek drama studiyasida tarjimon bo‘lib ishlagan davri uning ijodida juda katta ahamiyat kasb etdi. U ilg‘or rus madaniyati bilan yaqindan tanishishi bilan birga tarjimonlik borasidagi mahoratini ham oshirdi, Toshkentga qaytgach esa dastlab hozirgi O‘zbek Milliy teatrida adabiy emakdosh bo‘lib, so‘ngra «Mushtum» jurnalida ishladi.

O‘tgan asrning 20-yillarida Cho‘lpon sermahsul Mutafakkir sifatida e‘tiborga tushadi va she‘riy to‘plamlari ketma-ket nashr etiladi. Ayniqsa, «Uyg‘onish» (1922), «Buloqlar» (1922), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) majmualarini o‘quvchilar sevib mutolaa qilishgani haqida manbalarda ta’kidlanadi. Bundan tashqari, nasriy asarlari orasida «Do‘xtur Muhammadiyor», «Qor qo‘yinida lola» hikoyalari, «YOv» qissasi, «Kecha va kunduz» romanining «Kecha» qismi falsafiy jihatdan diqqatga sazovor.

XX asrning 20-30 – yillar vaqtli matbuotida Cho‘lponning ma’naviy izdoshlari bag‘rikeng, ma’rifat va mamlakat taraqqiyoti uchun kuyunchak shaxs bo‘lganligi haqida yozishgan. Masalan, «Qizil bayroq» gazetasining 1922 yil 29 iyul va 1 avgust sonlarida bosilgan xatga qaraganda,— deb yozadi Sherali Turdiev,— Shu vaqtga qadar Germaniyadagi Ziroat akademiyasida faqat Toshkentlik Abdulvohid Murodov ismli talaba o‘qiganligini ana Shu talabaga Turkiston ziyolilari moddiy yordam uyushtirganlarida Cho‘lpon o‘z jamg‘armasidan 7500 so‘m ajratganligini aytadi. ² Bu bilan Cho‘lponni Yevropada o‘zbek xalqi madaniyati va ma’rifatini jahon sivilizatsiyasi bilan boyitishga intilgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaganligini ko‘rish mumkin. Bu borada Mutafakkir

¹ Курунов Д.. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 14 б.

² Турдиев Ш.. Маърифат қалдирғочлари // Ёшлик. –Тошкент. 1989. -№ 7. -64 б.

yozadi: «Qizil bayroq»ning so‘nggi sonlaridan birida Ovrupog‘a o‘qimoq maqsadida bir o‘zbek qizining ketmakka hozirlanganligi yozilg‘andir. Biz so‘nggi vaqtlarda o‘zbek yoshlarining uzoq ellarga, yot yurtlarga ketib, bilim orttirmoq uchun juda qiziqib borganligini ko‘rib sevinmoqdamiz. Bu harakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralasha olmaganlarning vazifasi vosita bilan bo‘lsa-da, ko‘mak qilish, qo‘llashdir. Bu hol bizning kelgusimiz uchun katta umidlar berganligini unutmaylik.

Chor hukumati vaqtida ichki Rossiya musulmonlarini cho‘qintirmoq ishida Rustami zol bo‘lgan bizning ma‘lum Ostroumov to‘ramizning ustozlari sanalgan mashhur Ilinskiy cho‘qintirish siyosatining piri bo‘lgan Pobedonosovga yozgan xatida: «Erlik xalq orasidan biz uchun foydalik va hech bo‘lmaganda zararsiz kishilar o‘ruscha tilni tutilib, uyalib gapiraturg‘on, o‘ruscha yozg‘onda birmuncha xato bilan yozaturg‘on, bizning gubernatorimizdan emas, xatto ustal boshlig‘imiz (mirza) dan ham qo‘rqaturgon kishilardir, – degan edi. Bunga qarshi biz rus tili bilan emas, hatto Ovropa madaniy millatlarining tili va bilimi bilan javob bersak, odam qatori yashamoqqa albatta haq qozonamiz. Endi bu ezgu harakatga tariximizda ko‘raolmaganimiz bu narsa qo‘shilsa, ya‘ni o‘zbekning erkin yigitlari emas, tutkin qizlari ham Ilinskiy vasiyatiga qarshi isyon boshlasa, o‘zi uchun eng totli bo‘lgan elidan, ota-onasidan kechib necha ming chaqirim erga ketsalar, odam qatori yashash haqini, turtki emasdan, urulmasdan kun ko‘rish huquqini ortig‘i bilan qozona olamiz.

O‘zbek xotin-qizlarni huquq va erk uchun kurash boshlamoqda. O‘zbek qizining G‘arbga, G‘arbning chin bilim, chin madaniyatiga qarab yurishi haq-huquqini butun elning haq-huquqi bilan birga tez va tez fursatda qo‘lga keltirg‘usidir»¹.

Berlinda tahsil ko‘rayotgan talabalar «Ko‘mak» to‘plamini nashr etishib, uning birinchi sonidayoq Yevropa o‘quvchilarini Fitrat va Cho‘lpon ijodi bilan tanishtiradilar.

¹ Абдулҳамид Сулаймон. Истикбол учун кураш. -»Қизил байроқ» газетаси. 1932 йил, 2 сентябр.

Chunonchi, Berlin universiteti falsafa fakultetining talabasi Ahmad Shukriyning «Turk adabiyotida idealizm va realizm», «Cho‘lpon-Cho‘lpondir» maqolalari qatorida Cho‘lponning «Ketganda» nomli she‘ri ham bosiladi. Ahmad Shukriy Cho‘lponni Shekspir bilan qiyoslab, quyidagi xulosaga keladi: «Cho‘lpon oti qulog‘imga kirguncha ko‘zimga Shekspir ko‘rinadirda turadir. Shekspir lirizmasi bilan Cho‘lpon she‘riyati orasida naqadar ayirma axtarsam-da, oni topolmadam. «Uyg‘onish»ni necha topqirlar o‘qib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. Eng so‘ng «Shekspir - Cho‘lpon yoxud Cho‘lpon - Shekspirdir» fikriga, keldim. Cho‘lpon she‘rlari Shekspir jo‘shqinligi bilan to‘ladir. Cho‘lpon oqko‘ngilligi Shekspir samimiyligidan o‘tadir.

Cho‘lpon bizda sevgi tangrisi, sevgi yaratg‘uvchisidir. Cho‘lpon lirik, Cho‘lpon Mutafakkirdir, Cho‘lpon Cho‘lpondir»¹. Ma‘rifat dunyoni ozod va obod etishga, insonni jaholat va xurofot botqog‘idan olib chiqib ketishga, uning ma‘naviy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qodir bo‘lgan yagona va qudratli kuchdir. Shu bois, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya Imperiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan Turkiston o‘lkasini uyg‘otish, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma‘rifat orqaligina erishish mumkinligi uchun bu davrda ma‘rifatchilik harakati xar qachongidan ham kuchayib ketdi. Jamiyatni yangilanish zaruriyati sifatida vujudga kelgan ma‘rifatparvarlik harakati bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma‘naviy muammolarini xal etish uchun bel bog‘lagan ilg‘or fikrli ziyolilardan tarkib topgan bo‘lib – jadidchilik harakati nomi bilan tarixga kirgan. Jadidlar xalqni marifatli qilish orqali milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishni va jamiyatda tub islohatlar o‘tkazishni ustuvor vazifa deb bilganlar. Ammo, mustabid sovet tuzumi davrida bu harakat salbiy baholandi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov xali mustaqillik qo‘lga kiritilmagan tahlikali davrdayoq, “ma‘rifatparvar bobolarimiz – jadidchilik namoyandalarining hayoti va ijodiga munosabat masalasida ko‘p yillardan buyon davom etayotgan

¹ Ахмад Шукрий. Чўлпон - Чўлпондир. –// Кўмак. –Берлин, 1923. -№ 5. - Б. 19-20.

bahslarga oqilona chek qo'yib, ularning merosini xalqimizga qaytarish yo'lidagi amaliy, prinsipial fikrlarni ilgari surgan"¹.

Uning, - "jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. ...Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"²- degan so'zlari xech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi. Demak, ma'rifatparvarlik g'oyasini avlod va asrlarni bir-biriga tutashtirib turuvchi hayot baxsh ko'priikka qiyos qilsak bo'ladi. Bu ko'prikk Shunday ko'prikki nafaqat avlodlarning bir-biriga tutashtiradi jamiyatni xar bir bosqichida xalqni milliy o'zligini anglashi va milliy g'oyani shakllanishida beqiyos axamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, milliy g'oyaning shakllanishida jadidlarning falsafiy-axloqiy qarashlarining ta'sirini o'rganish xozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

20-yillardayoq Cho'lponga bo'lgan ikki xil munosabat ochiq shakllana boshladi. Birinchisi - Cho'lpon favqulodda iste'dod egasi, Shekspirilar darajasida olamni fahm eta oladigan Mutafakkir, dramaturg va san'atShunos; ikkinchisi - Sho'rolar tuzumini tezda anglab etmagan, aldangan, yiqilgan va yana o'zini o'nglab olib, mahdudchilik va millatchilik yo'liga kirib ketgan adib. Tadqiqotimizda mana Shu ikkinchi munosabat qaysi davrda qanday kechganini ko'rib chiqishni o'rinli, deb hisoblaymiz.

1.2. Abdulhamid Cho'lponning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari

Uzoq yillar mobaynida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon «jadid», «mafkurasi buzuvchi», «millatchi», «burjua Mutafakkiri», «bosmachilar kuychisi», «yig'loqi Mutafakkir», «aksilinqilobchi», «Oktabr inqilobini tuShunmagan ovsar», «yoshlar ongini zaharlovchi yot unsur» va nihoyat «xalq dushmani» sifatida tanqid qilindi. To'g'ri, Zarif Bashiriy «Turkiston» gazetasining 1923 yil 2-may sonida Cho'lponning «Uyg'onish» to'plamiga taqriz yozib, Mutafakkirni «keyingi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. -Т.:Ўзбекистон,2011. -20-21-бетлар.

² Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курашимиз.7-жилд,-Т.: "Ўзбекистон", 1999 й, 135-бет.

davrdagi o'zbek Mutafakkirlaridan eng oldingisi va chin ma'nosi bilan Mutafakkir deb atalishga loyiq» ekanligini tan oladi; «Zarafshon» gazetasining 1924 yilgi ikki sonida bosilgan maqolada A.Sa'diy Cho'lponni «yonuvchi va yondiruvchi», «chin ma'nosi bilan romantik bir yurak Mutafakkiri» sifatida ta'riflaydi.

Mutafakkir ijodiga berilgan ilk baholarda Zarif Bashiriy hamda A.Sa'diylar Cho'lpon asarlarining xalq ommasi uchun emas, ziyolilarga mo'ljallab yozilganini ta'kidlagan edilar: «Cho'lpon o'rtoq «el» va «xalq» so'zlarini qancha ko'p yozsa va so'zlasa ham, ul xalq Mutafakkiri emas, xalqqa yaqin bo'lgan ziyolilar Mutafakkiridir. Uning uslub va ruhida xalqchilik juda oz». (Z.Bashir); «Cho'lpon omma-xalq Mutafakkiri emas, o'qimishlilar, ziyolilar Mutafakkiridir. Uni omma-yalpi xalq tez anglaydi. Lekin Shuning barobarinda, u xalq qayg'usi bilan (faqat hech bir sinfga ayirmasdan) yozg'uvchi «xalqchil» «narodnik») bir Mutafakkiridir. Cho'lponda asl ko'zga qattig' berilib turg'on tub xususiyat ham Shundadir» (A.Sa'diy)¹.

Shuningdek, Olim Sharafiddinov o'tgan asrning 20-yillarida birinchilardan bo'lib Cho'lponga «hujum darvozasi»ni ochib berdi. «Qizil O'zbekiston»ning 1927 yil 6 iyun sonida Komiljon Aliev Cho'lponni millatchilikka og'ib ketganini ta'kidladi, u «Aqlli jinni («Qizil O'zbekiston, 1927 yil 12 oktabr) va «Qora kiyingan qizil to'y» («Qizil O'zbekiston» 1928 yil 27 iyun) feletonlarini e'lon qildi.

Cho'lponga qarshi o'ngdan va so'ldan tosh otishlar ayni kuchaygan davrda Abdulla Qodiriy va Oybeklar uni himoya qilib chiqdilar. Abdulla Qodiriy 1926 yili nashr etilgan Cho'lponning «Tong sirlari» to'plamiga yozgan so'z boshisida Mutafakkirni yig'loqi deguvchilardan himoya qiladi. Oybekning ikkita maqolasi Cho'lpon haqidagi 20-yillardayoq bayon etilgan chuqur va odilona tadqiqotlar edi. Oybek birinchi maqolasida («Cho'lpon Mutafakkirni qanday tekshirish kerak?»), «Qizil O'zbekistonning 1927 yil 37-sonida e'lon qilingan «Ayn» (Olim Sharafiddinov) ning «O'zbek yosh Mutafakkirlari» maqolasida Cho'lponni noto'g'ri metodologiyaga asoslanib tekshirmoqchi bo'lganini ta'kidlaydi.

¹ Қаранг: Шарафиддинов Озод. Маънавий камолот йўлларида. –Тошкент: Маънавият, 2001. -Б. 155-156.

Usmonjon Eshonxo'jaevning «Qizil O'zbekiston»da bosilgan «Munaqqidning «munaqqidi» maqolasi egasiga» javobida «adabiy asarlarni tekshirgan vaqtda ham shaxsiy orzu va tilaklarni bir tomonga yig'ishtirib qo'yib, masalaga ob'ektiv qarash zarurligini uqtiradi.¹

«Pravda Vostoka» gazetasining 1931 yil 14 yanvar sonidagi «O'qituvchi» imzosi bilan bosilgan «Madaniy jabhadagi o'pirilish» maqolasida Gramatovichning «O'zbek tili» darsligi kitobida keltirilgan Cho'lponning «Go'zal» she'ri qattiq tanqidga uchraydi. Mixail Sheverdin «O'zbek yo'qsul adabiyotining ilk katta asari» («Pravda Vostoka», 1931 yil, 15 yanvar) maqolasida Umarjon Ismoilov bilan Cho'lpon ijodlarini bir-biriga qiyoslab, birinchisi o'zbek yo'qsul adabiyotining yuksak namunasi, Cho'lpon va Fitrat dramalarini esa aksil inqilobiy adabiyotning ko'rinishlari tarzida baholaydi. U «Pravda Vostoka»ning 1931 yil 31 dekabr sonida bosilgan «Falsafiy adabiyotdagi chirkin liberalizmga qarshi» maqolasida adabiyot va ijtimoiy hayotdagi «Cho'lponchilik»ning jamiyat uchun nechog'lik zararli ekanligini uqtiradi. Abdurahmon Sa'diyning «O'zbek nafis adabiyotida millatchi aksilinqilobchilik» («Uzbekistanskaya pravda», 1931 yil, 24-25 mart) maqolasida Mutafakkir to'g'ridan-to'g'ri bolshevizm va Sho'rolar dushmani sifatida ko'rsatiladi. Miyonbuzruk Solihov o'zining «O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari» kitobida (1933 yil) Cho'lpon ijodining g'oyaviy jihatdan zararli va xavfli ekanligini nazariy asoslab berishga harakat qiladi. Cho'lponning «Xalq» she'rini tahlil qilar ekan, unga Shunday baho beradi: «Tabiiyki, bundagi xalqni proletar ommasi deb o'ylashga imkon yo'q. Bu xalq milliy demokratchilarning o'ylaganlaricha boy, ruhoniylar va bosmachilar, mushtumzo'rlarni o'z ichiga olgan bir xalqdir»².

Falsafiy asarni bu tariqa sub'ektiv tarzda tahlil qilish, ayniqsa, siyosiy tuShunchalar va qarashlarni obrazlar ruhi va olamidan to'g'ridan-to'g'ri talab etish, pirovardida, ijodkorni siyosiy kaltabinlikda va nazariy jihatdan chalkashlikda ayblash hukmron mafkura uchun juda qo'l kelar edi. Shu tariqa 20-30-yillardayoq

¹ Ойбек. Мунаққиднинг «мунаққиди» мақоласининг эгасига // Шарқ Юлдузи. –Тошкент, 1989. -№ 6. -190 б.

² Қаранг: Шарафиддинов О.. Маънавий камолот йўлларида. –Тошкент: Маънавият, 2001. – 174 б.

tanqidchilardan Sharif Bashariy, Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Abdurahmon Sa'diy, Sotti Husayn, Miyonbuzruk Solihov, Anqaboy, Kashshof Treg'ulovlar Cho'lponga «jadid», «millatchi», «vatanparast», «tuzumga qarshi turuvchi» tamg'alarini yopishtirishga erishdilar. Ayniqsa, Rahmat Majidiy o'zbek sovet yozuvchilarining ikkinchi plenumi (1936 yil) da qilgan ma'ruzasida «Cho'lponning qarashi, uning g'oyasi mahalliy burjuaziyaning g'oyalari edi. Cho'lpon shaxs, Mutafakkir sifatida bu burjuaziyaning g'oyasini ifoda qiladi»¹, deb bo'layotgan munozaraga yakun yasaydi. Bundan tashqari, T.Sobirov «O'zbek sovet dramaturgiyasi» kitobida «Fitrat, Cho'lpon, G'ozii Yunus kabi yozuvchilar, ular mustamlaka Turkiston bilan sotsialistik Turkistonning bir-biridan farqini ajrata olmadilar... Ular o'z asarlarida burjuacha «ozodlik»ni ifodaladilar, Shuningdek, panturkizm g'oyasini targ'ib va tashviq qildilar»², - degan xulosa chiqaradi. Nihoyat Ozod Sharofiddinov, Erik Karimov, Ahmad Aliev kabi adabiyotshunos olimlarning o'zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida Fitrat va Cho'lponlarga bo'lgan munosabat ruhi o'zgara boshladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, Cho'lpon va Fitratlarga bo'lgan munosabat to'g'ri yo'lga birdaniga o'zgargani yo'q. Bu borada ikki holat ko'zga tashlanadi. Birinchisi - Cho'lpon, Fitrat, Elbeklarni oqlash va himoya qilish asosan deklorativ tarzda, faqat maqtov hamda asarlarini yuzaki bayon etib, ularning haqiqatan buyuk Mutafakkir bo'lganliklarini tasdiqlash. Bunday chiqishlarda adiblar ijodining falsafiy-falsafiy mohiyatini keng va chuqur tahlil qilishdan ko'ra, ularning fojiali qismatidan achinish hamda rahmdillik bilan xaspo'shlash alomatlari seziladi. Aynan mana Shu yo'l Cho'lpon, Fitrat, Elbeklar ijodi haqida fundamental tadqiqotlarning vujudga kelishi uchun zamin tayyorladi.

Ikkinchisi – jadid-ma'rifatchilarining asarlari haqida gap ketganda, tuhmat va nadomatlarini inkor etmagan xolda, ularni yumshatib, zamonga moslashtirish. Bu yo'l ko'proq o'zni oqlashga qaratilgan bo'lib, aslida eski mulohazalarni tasdiqlashga urinish, Chunonchi, «millatchi», «panturkist», «inqilob dushmani»

¹ Раҳмат Мажидий. Истеъдод ва бурч. –Тошкент: Меҳнат нашриёти, 1974. -56 б.

² Собиров Т.. Ўзбек совет драматургияси. –Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. - 82 б.

kabi tuhmatlar o'rniga «murakkab», «jumboqli», «qaltisroq», «tanqidiy o'rganish zarur», «Cho'lpon ijodining ikki davri» singari mavhum hadiksirashlardan iborat bo'ldi.

Nihoyat, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ma'naviy qadriyatlarimiz, tariximiz va o'tmish ajdodlarimiz faoliyati, ijodi va taqdiriga bo'lgan munosabat o'zgardi. Shu jumladan, Cho'lponning hayoti va ijodiga doir yangi va xolis materiallar bilan tanishish imkoniyati vujudga keldi. Bu borada tadqiqotchi Murtazo Qarshiboevning xizmatlarini alohida e'tirof etish mumkin. U jadidlar ustidan qo'zg'atilgan «jinoiy ish»larni o'rganib chiqib, ularning qonunchilikka zid tarzda olib borilgani, ularda adolatdan ko'ra siyosiy-mafkuraviy «uydirmachilik» ustun bo'lganligini asoslab berdi.¹. M.Qarshiboev arxiv materiallari asosida Cho'lponga qo'yilgan «ayb»larni kuyidagi ko'rinishda tartiblaydi:

1. Inqilobning birinchi kunlaridanoq aksil inqilobiy kuchlar tomoniga o'tib olgan, «Milliy ittihad» aksilinqilobiy tashkilotiga a'zo bo'lib, aksilSho'roviy faoliyat bilan Shug'ullangan.

2. Sgo'rolar hukumatiga qarshi qaratilgan hamma ishlarda (Turkistonning mustaqilligi uchun kurashda, bosmachilik harakatini tashkil qilishda, mafkura jabhasidagi kurashda) faol ishtirok etgan.

3. Millatchilikni tashlayman deb, Sho'ro hukumatini aldagan va so'nggi vaqtlargacha aksil inqilobiy millatchilik ishlarini olib borgan.

4. O'zining she'rlarida aksilinqilobiy millatchilikni ko'kka ko'tarib maqtagan, aksilinqilobiy she'rlar yozgan va tarqatgan, aksilSho'roviy gaplar aytgan.

5. Xorij razvedkasi bilan aloqada bo'lgan va hokazo.

Millatchilik g'oyasining asosida bir xalqning boshqa xalqdan, bir mamlakatning boshqa mamlakatdan ustunligini ta'kidlashga urinish, o'zga xalqlar va mamlakatlarni tahqirlash yoki kamsitish tamoyili yotadi. Bunda «millatchilik»

¹ Қаранг: Қаршибоев Муртазо. Чўлпоннинг «жиноий иши» // Санъат. –Тошкент, 1990. -№ 8. –Б. 4-7; Қаршибоев Муртазо. Муҳит эркидаги тутқинлик. // Шарқ Юлдузи. –Тошкент, 1990. -№10.

muayyan millat va mamlakat afzalligini boshqa xalq va mamlakatlarni kamsitish evaziga ideallashtirish tamoyili sifatida koʻzga tashlanadi.

Faylasuf olim Sadulla Otamuratov millatchilik va uning salbiy oqibatlari xususida fikr bildirib, sobiq sovet tuzumining bu boradagi kirdikorlarini fosh etadi. Bu borada, sobiq ittifoqdosh respublikalarning oʻz millatini «millatchilik»da ayblash davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, ularni markazga iotatda boʻlishni taʼminlashning oʻz milliy madaniyatlaridan mahrum etilishining va rus madaniyatini «oʻzlashtirishga» majbur etishning qudratli vositasi sifatida foydalanib kelinganligini taʼkidlab, «Sovet davlatining vujudga kelishi jarayonidan tortib to uning halokatga uchraganiga qadar faqat milliy respublikalardan chiqqan millatparvarlarni qirish, ular ongiga baynalminallikni singdirish davom ettirildi. Millatparvarlar «millatchilik»da, shovinistlar esa «baynalminalchi» deb ayblangandi», deydi.¹ Mazkur fikrning mohiyati oʻz navbatida, Choʻlpon va butun jadid-maʼrifatchilariga qilingan munosabatning nechogʻli gʻayrinsoniy ekanligini ham tasdiqlaydi.

Mustaqillik sharofati bilan Choʻlponga qoʻyilgan «ayb»larning butunlay boʻhton ekanligi oʻz isbotini topdi. Shu maʼnoda Choʻlpon ijodiga nazar tashlaydigan boʻlsak, uning falsafiy dunyoqarashi shakllanishining obektiv va subektiv omillarini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, Choʻlpon yashagan davr nihoyatda murakkab va ziddiyatli edi. Ana Shunday ijtimoiy-siyosiy muhitda u oʻz davrining ilgʻor gʻoyalariga ergashdi. U Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Qodiriy singari xalqparvar ziyolilar yoʻlidan borib, iqtidorini yurt ozodligi va erki uchun safarbar qildi. Barcha maʼrifatparvarlar singari u ham falsafiy mushohadalari va falsafiy tasavvuri orqali davr muammolarini ifodalashga intildi.

Ikkinchidan, Choʻlpon jahon madaniyati tarixi va falsafiy ijodiyoti xazinasidan bahramand boʻlgan yetuk ziyoli va zukko maʼrifatchi edi. Bu xolat uning tarjima faoliyatida yaqqol koʻzga tashlanadi. Shunga koʻra, uni Sharq

¹ Otamuratov С. Глобализм и нация. –Ташкент: Янги аср авлоди, 2008. -147 б.

madaniyati, adabiyoti va xususan poeziyasini chuqur egallagan, oʻtmish ideali bilan emas, kelajak ideallari sari qadam tashlay olgan Mutafakkir, deyish mumkin.

Uchinchidan, Choʻlpon mumtoz Mutafakkirlarga boʻlgan munosabatidayoq tamomila yangi yoʻl tanlagani, oʻzbek poeziyasi va zamonaviy adabiyotga yangicha qaray boshlaganini bildirgan edi. Bu haqda Choʻlpon «Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni oʻqiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Koʻngil boshqa narsa – yangilik qidiradir: Botu, Gʻayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboylarni oʻqiymen, quvontiradir, xolos! Ular men uchun yolgʻon chiroqlar boʻlsa ham, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy va Hakimzodalarni oʻqimaymen, oʻqimaymen, meni Shu holga solgan oʻshalar!...», deb yozgan edi.¹ Shuni alohida taʼkidlash zarurki, Mutafakkirning oʻtmish va zamonaviy Mutafakkirlarga bunday munosabati uning boshqa ijodkorlarni mensimaslik alomati emas edi. Bu yuragi pok insonning oʻz vijdoni oldidagi dil izhori, anʼana va vorisiylikni oʻzicha tuShunish va talqin etish edi. Choʻlpon maqolasidagi «koʻngil qidiradir», quvontirar, xolos. «Ular men uchun yolgʻon chiroqlar», «mening ertam uchun», «meni Shu holga solgan oʻshalar» degan iboralariga eʼtibor berilsa, ularning tagida juda koʻp aytilmagan maʼnolar borligini his qilish qiyin emas. Bunday kayfiyatlar maʼrifatparvarlik gʻoyalaridan oʻzib ketib, yangi fikr va yangicha dunyoqarashga intilgan ziddiyatli ruhiy tuygʻularni ifodalaydi. Bu hayot bilan hayol oʻrtasidagi tafovutlarni qanday qilib obrazlar tiliga koʻchirish ustida tafakkur qilayotganidan darak beradi.

Toʻrtinchidan, oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy jarayonlari bilan bevosita bogʻliq boʻlgan mutafakkir uchun oʻtmish Mutafakkirlar maktabi, ideali, oʻgiti va obrazlar dunyosi osmondagi charaqlagan yulduzday tuyulgan edi. Uning uchun xalq qalbi va yoʻlini yoritadigan chiroqday boʻlsa ham insonga iliq nur taratadigan yorugʻlik, xalqqa yaqin aniq poetik obrazlar zarur edi. Choʻlponning yuqoridagi fikrini ana shunday tushunmoq zarur. Choʻlpon mumtoz adabiyotimizni mensimaydi emas, balki uning ritmik va qatʼiy shakl tizimlaridagi mutlaq qonuniyatlar, obrazlar turkumidagi mushtaraklik XX asr boshlaridagi

¹ Чўлпон. Яна олдим созимни. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. -237 б.

ijtimoiy hayot manzarasini falsafiy tasvirlash imkoniyati yetarli emasligini ta'kidlamochi bo'ladi.

Cho'lpon an'anaviy o'zbek she'riyatini bilgan holda har qanday ulug' ijodkor singari unchaga va undan keyin ham boshqalardan ajralib turgan san'atkor dunyosini ifoda etuvchi original falsafiy-falsafiy olamni hamda ham mazmun, ham shakl jihatidan ajralib turuvchi g'oyaviy-falsafiy yuksak darajadagi she'riyat turkumlarini yaratdi.

1.3. Abdulhamid Cho'lpon falsafiy dunyoqarashi shakllanishining ob'ektiv shart-sharoitlari

Cho'lpon tabiat go'zalligining qadriga etish, unga oqilona va odilona munosabatda bo'lish qanchalik zarur bo'lsa, millatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatda ham noziklik, adolat bo'lishini istaydi. Shubhasiz, uning bu fikrlari 20-yillarda osmondan tarasha tushganday tuyulgan edi.

«Ko'gard vodiysi» maqolasida Jalolobodga chiqqan sayohat taassurotlarida ijtimoiy, demografik muammolarni ham o'rta tashlaydi. Mutafakkir ta'biricha, Jalolobod qishlog'i yoki shaharchasining kun chiqish biqinida baland adirlar bor. O'shalarining bir chekkasidan chiqib yotgan «dardga davo» buloqlar, burungi chor hukumatining diqqatini yaxshigina jalb qilgan edi. Chor hukumati u joyni yaxshi va mukammal bir sayfiyya (kurort) ga aylantirib, shimol va g'arbning olifta boy bolalari uchun ham shifo manbai, ham fahsh uyasi qilmoqchi edi. Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan, Cho'lpon so'zi bilan aytganda, tor millatchi o'rus muharrirlari sayfiyya (bop joylar) Kafkaziya, Qrim va Turkistonda ko'p ekanligini, ana Shu erlarni o'zlashtirib foyda olish ma'qul ekanligini yozganlar. «O'rus millatchisining Shu maqolasini, – deb yozadi Cho'lpon, – 1914-1915 yillarda o'qigan bo'lsam ham u vaqtda uning chin ma'nosiga uncha tuShunmagan edim. Oradan o'n yil qadar vaqt o'tdi. Rossiyada ulug' o'zgarishlar bo'ldi. «Vatanparvarlik», «millatchilik» kabi so'zlarga boshqacha ma'nolar berildi. Endi yuqoridagi maqolalarning ma'nosi ham bizga butun ochiq va yopiq jihatlari bilan birga yaxshi anglanadi. Ayniqsa, «Qiz buloq» degan buloqning yonida turib Ko'gard vodiysiga nazar solsak, unda qator chizilib ketgan o'rus qishloqlarini

ko'rsak... maqolaning mafkumi yana ham ochiq fahmlanadir. CHor hukumatining muhojarat (ko'chirish) idorasi chinakam iqtidorli kishilar qo'liga topshirilgan edi. Bu atrofda, fikrimcha, Shu Jalolobod, Ko'gard vodiysidan unumlik tuproq bo'lmasa kerak. Shu joyga eng katta muhojir qishloqlari solingan, eng qora muhojirlar o'rnatilgan... o'sha muhojir qishloqlarning o'rtasida yarqirab ko'ringan haybatlik butxona qubbalari... chor hukumatining niyat va irodasini ko'rsatib turadi...»¹.

Cho'lponning 1924 yili yozgan bu so'zlari nainki o'zining jasoratligi bilan, ayni choqda, bashoratligi bilan ham kishini hayratga soladi. Chor hukumatining chekka o'lkalarga o'ylamay-netmay xalqlarni ko'chirishi, bir tomondan, mustamlakachilik siyosatining yorqin ifodasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, hozirgi payt millatlararo nizolarning kelib chiqishiga ham sabablardan biri sifatida qaralmog'i kerak.

Cho'lpon dunyoqarashi insoniyat ilg'or tafakkuri ta'sirida, jonajon o'lka tabiati va qishloqlari, turmush tarzi, hayoti va faoliyati ta'sirida, o'z davri ijtimoiy, siyosiy, falsafiy qarashlarining gumanistik va vatanparvarlik irmoqlari ta'sirida shakllandi va rivojlandi. Cho'lpon hech qachon tor va cheklangan holda fikr yuritmagan. U keng va ochiq tafakkurni, erkin va ozod milliy yuksalishni, ma'rifat va madaniyat orqali hayotni go'zallashtirishni orzu qildi, Shu yo'lda tinmay faoliyat ko'rsatib, ijod qildi. Cho'lpon o'z sayohatnomasini quyidagi so'zlar bilan yakunlaydi: «Shu kalta sayohatning natijasida ko'p narsalarni ko'rdik. 5-6 yillik buzg'unlik tarixini joy-joyida varaqlab, o'qib ko'rdik. Buzg'unlik haqiqatdan juda kuchlik. Buzg'unlikni yo'q qilib, yiqilg'onni tiklash uchun juda zo'r kuchlar, tuganmas g'ayratlarga ehtiyoj bor. Yurt – buzulg'on. Lokin uning munbat tuprog'i ko'chib ketgani yo'q, joyida. U tuproq orqali yana yurtning yashnatmak siz va bizning qo'limizda, hurmatli o'qug'uvchilar»².

Shaxsga sig'inish, sinfiy kurash g'oyalari avj olgan bir davrda «Millatchi» va «xalq dushmani» degan siyosiy tamg'alar yopishtirilgan Cho'lponning sof va

¹ Чўлпон. Яна олдим созимни. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. -103 б.

² Чўлпон. Вайроналар орасида. Нашрга тайёрловчи: Жўра Худойбердиев. «Халқ сўзи» газетаси, 1991 йил 4 - май.

begʻubor orzulari parvozigga imkoniyat berilmadi. Lekin Choʻlponning ayrim maqola va ocherklari uning dunyoqarashi, falsafiy tasavvurlari va goʻzallik haqidagi tushunchalari xalq turmush tarzi, ona yurt nafosati va milliy-maʼnaviy qadriyatlar asosida shakllangani va Shu qadriyatlarni yana koʻpaytirish, boyitishga qaratilganidan dalolat beradi. U milliy falsafiy va maʼnaviy qadriyatlarni umumbashariy goʻzalliklar va qadriyatlar darajasiga koʻtarishni maqsad qilgan. Bu sohada oʻzi oʻrnak boʻlgan mutafakkirlardan biri edi. Uning, ayniqsa, turli xalqlar tili, madaniyatidan voqif boʻlishi bunga yaqqol misol boʻladi.

Har bir ijodkor dunyoqarashining markazida uning goʻzallik haqidagi tushunchasi va falsafiy ideali yotadi. Ana Shu goʻzallik ramzi, obrazi uning barcha badialarida yarq etib koʻzga tashlanadi. Choʻlponning goʻzallik va ilhom manbai – bu qadrdon oʻlka tabiati, odamlari va ularning taqdiri. Uning goʻzallik tushunchasi ana Shu oʻlkada etilgan, bu oʻlka tabiati qoʻynida emin-erkin nafas olib, Shu oʻlka odamlari yoʻliga payondoz boʻlgan.

Choʻlponning sevimli va doimiy goʻzallik timsoli boʻlgan obrazlari bor: yulduz, oy, kun va tun, daryo, togʻ va buloqlar, maysa, dengiz, yaylovlar, yaproq, kapalak va qor uchqunlari. Bu obrazlarning barchasi birin-ketin yo Mutafakkir yuragida tugʻilgan hasrat va erkinlik armonini, yo mashʼum daqiqalardagi iztirob, oʻksinish yoki tugʻyon charxpalagini, yo sokin, orombaxsh lazzat shavqini ifoda etadi. Tabiat neʼmatlari birgalikda Mutafakkirning falsafiy idealini, nafosat tuygʻularini belgilaydi. Choʻlpon «Borliqning tamomi shakli»dan zavq oldi, uni goʻzallik deb bildi. Misol tarzida uning «Barg» sheʼrini eslash mumkin. Mutafakkirning doimo muhit iskanjasida, xayolot ogʻushida boʻlgan nigohi birdan jonlanib, yasharib, yashnab ketadi, koʻngli samoviy erkinlik tuyadi. Yuragi kun kabi charaqlab gʻammi quvganday, umid uchqunlari vujudiga chirmasha boshlaydi.

Mutafakkir borligʻini oʻzgartirib, koʻziga dunyoni keng va goʻzal etgan narsa nima? Tabiat qoʻynida, bogʻning ichida hamma narsa koʻkargan, yashnagan, quyosh nurini hovuchlab tashlagan. Ariqda oʻynoqi suvlar shiviri, shohlarda uxlagan barglar nafasi, shamolning ipakday mayin kulishi, gul oʻpib mastona kapalak turishi – bularning barchasi Mutafakkir qalbida goʻzallik uygʻotuvchi

xislatlardir. U shamolning ham, kapalak va qo'ng'izning ham erkin, baxtiyor bo'lishini istaydi. Oltin qo'ng'izni bolalar ushlab, oyog'iga ip bog'lab, uchirib o'ynaganlarida Mutafakkir erkinligini yo'qotgan tilla qo'ng'izga achinadi. Mutafakkir uchun go'zallik – o'z umri, hayoti bilan qoyaday serviqor turg'uvchi tabiat va insondir. Ana Shuning uchun u ko'klardan malaklar qiz bo'lib tushsa ham, o't bo'lib qo'yniga kirib ketsa ham, farishta malakni o'pishdan ko'ra butoqda titragan bir bargni bag'riga bosishni, uni sevib o'tishni yoqtiradi.

Cho'lpon tasavvurida go'zallik xayoliy tasavvur, tuShuncha emas, har damda, har yonda uning ko'zlariga zavq, ko'ngliga quvonch hadya etuvchi ona tabiat va uning ne'matlaridir.

Cho'lpon bahorga bo'lgan alohida muhabbatini yashirmaydi, aksincha, takror va takror qayd etadi. Lekin u romantik Mutafakkir sifatida bir qo'noq to'rida qolib ketmaydi, bir qo'shiq quliga aylanmaydi hech. U turlanuvchi olam bag'rida tovlanuvchi go'zallikni ko'ra biladi. Mutafakkirning o'zi e'tirof etganday, u na kuzdan, na qishdan yuz o'girmadi, har qaysisidan ko'ngliga ovunchoq topadi.

Mutafakkir hayotning milliy turli-tuman ko'rinishlarida go'zallik ko'rdi, ulardan erkin quvonch olishga intildi. Shu bilan birga Cho'lponning go'zallik tuShunchasini to'ldiruvchi xunuklik haqidagi tasavvurlari ham borki, bu narsa, avvalo insonni tushovlovchi muhit, ijtimoiy kishanlar, eski odat, ko'nikmalar tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, uning «Chechak» she'ri yana «bir kechaning esdaligi» deb ataladi. Unda go'yo yangigina yaproq yorib chiqqan chechakning besh-olti kun odamlarga tansiq bo'lishi va biron tentak tomonidan uzib uloqtirilishi tufayli oyoq ostida toptalib, ezilib ketishidan Mutafakkir achinayotganday tuyuladi. Gul besh-olti kun ko'kraklarda «Men go'zalman, chiroyliman» deb maqtanib yurgach, erga tushib so'ladi, sarg'ayadi, o'lim tusli rangga kiradi.

She'r «Bir kechaning esdaligi» deb bejiz aytilmagan. Go'zallikning bir kechali ermak mash'ali xunuklikning abadiyat zulmati bilan egizak ekanligi ta'kidlanadi. Mutafakkir nazdida go'zallik lahzali safo, bir kechali farog'at emas, axloqu odob, tanqis erkinlik tuyg'usini tuyish ifodasidir. Cho'lpon dunyoqarashining gumanistik, falsafiy mag'zi ana Shunda.

Bu fikr Mutafakkirning «Satang» she'rida yanada jozibali ifodalangan. Cho'lpon xuddi rassom kabi o'ziga oro beradigan, bir kechalik go'zallik ramzi bo'lgan satang ayol portretini chizadi. «Go'zal» yuzlarida boshqa qizlardek tubsiz qayg'ularning izlari emas, erka tannozlarning to'lqin chehralaridagi o'ynoqi sho'xlik barq uradi.

Cho'lpon satang jamolini ta'riflab, uning go'zalligini ulug'lab, tomirlarida qon uvishgan yigitlarga jon ato etuvchi pari obrazini chizib kelib, she'rni yakunlaydi:

Qizil yuzlarida ikki gajakcha...

Ayniqsa, ko'p ko'rkam bo'lgan bu kecha!...

Bu satrlardan so'ng o'quvchi tasavvurida paydo bo'lgan go'zal siymo birdan hurkigan qush kabi uchib ketadi, uning ko'z oldida, tasavvurida xunuklik, tubanlik, benomuslik timsoli namoyon bo'ladi. Binobarin, Cho'lpon dunyoqarashi poklik, haqiqiy go'zallik va milliy axloq-odob sarchashmalariga borib ulanadiki, natijada uning axloqiy ideali tabiiy va chinakam insoniylikni, jismoniy va ma'naviy kamolotni talab etadi. Demak, Cho'lponning dunyoqarashi ezilgan, xo'rlangan, vayronaga aylangan o'lkaning ijtimoiy muhitida o'z xalqi va o'lkasini ozod ko'rish istagi, mustaqillik orzulari tarzida shakllandi.

Cho'lpon dunyoqarashida Sharq va G'arb xalqlari, mamlakatlari erishgan madaniy merosni birlashtiruvchi, ayni choqda, o'z xalqi ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ulkan jasorat va e'tiqod mavjud edi. U o'z xalqining hassos mutafakkir va jonkuyar mutafakkiri sifatida voqelikka, millat taqdiri va istiqboliga bo'lgan munosabatini romantik uslubdagi asarlarida ifoda etdi. O'zi ham romantik kayfiyatga, parvozga, ulug'vor orzularga molik san'atkor sifatida hayot, tabiat, inson go'zalligidan zavq oldi. Dunyodagi eng katta baxt – inson erkinligi va Vatan ozodligi, deb bildi.

Cho'lponning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va erksevarlik g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarashi uning nazariy-falsafiy qarashlarida, yangi professional o'zbek teatrini shakllantirish borasidagi faoliyatida, sermazmun va falsafiy yuksak asarlarida o'z ifodasini topdi.

II-BOB. ABDULHAMID CHO‘LPON ASARLARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI AKS ETISHI.

2.1. Abdulhamid Cho‘lponning qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashishi.

Cho‘lponning «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914 yil 3 iyul sonida bosilgan «Adabiyot nadur?» maqolasida yosh adibning nazariy-falsafiy qarashlari bayon etiladi. Unda adabiyotning inson hissiyoti va kechinmalari bilan bog‘liq falsafiy olam ekanligi, bu kechinmalar zamiri insonni o‘ragan muhit va bu muhitga bo‘lgan munosabat ekanligi ta’kidlanadi. Inson uni o‘ragan tabiat va ijtimoiy sharoit ta’siridan yo quvonadi, yo iztirob chekadi. Adabiyot esa ana Shu kechinmalarni yig‘ib, birlashtirib va saralab yana odamlarga falsafiy obrazlar tarzida qaytaradi: «Ba’zi vaqtda falak bir odamni qayg‘uga solup, ul o‘zi tuShunib, o‘ylab turib, oh tortib yig‘lar. Bu hasratlarni o‘z ichiga siqdira olmas. Birovga aytsa, «Voy bechora» dermukin deb, albatta, o‘z qayg‘usini birovga aytmakka tiyilar. To‘p-to‘g‘ri aytganda, ul qadar ta’sir qilmas. Adabiyot ila aytganda, albatta ta’sir qilar»¹.

Buning boisi adabiyot va san’atda aks etgan voqealar, hodisalarning kishida zavq-shavq, lazzat va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishida. San’at bag‘ishlaydigan kechinmalar beiz yo‘qolmaydi. Aksincha inson tafakkuri va xayolotini qamrab oladi.

Cho‘lpon adabiyotni millat ijtimoiy-ma’naviy hayotining ajralmas bir qismi sifatida tuShunadi. Adabiyot nainki o‘tmish va zamonaviy ma’naviy jarayonlar, balki millat va o‘lka kelajagining istiqboli bilan ham chambarchas bog‘langan. Shuning uchun u barcha ijtimoiy hodisalar qatori adabiyotga katta e’tibor berishga, uning taraqqiyoti bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilishga chaqiradi.

Cho‘lpon falsafiy qarashlarining markazida adabiyot va san’atning ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyati, ahamiyatini chuqur idrok etgani yotadi. Shuning uchun u

¹ Чўлпон. Адабиёт надур? Нашрга тайёрловчи: Рустам Тожибоев. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. -7 б.

«Adabiyot yashasa, millat yashar. Adabiyoti o‘lmog‘on va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar etishtirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur», degan falsafiy tamoyilni ilgari suradi. Bu borada adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning quyidagi mulohazasi o‘z navbatida mazkur asarning falsafiy mohiyatini ochib berganligi bilan ham g‘oyatda ahamiyatlidir: «Adabiyot nadur?» maqolasining kishini lol qoldiradigan yana bir juda muhim tomoni Shundaki, 16 yoshlik munaqqid adabiyotning ijtimoiy vazifasini ta’kidlash bilan cheklanmaydi, balki uning o‘ziga xos xususiyatiga, ya’ni obrazli tabiatiga alohida urg‘u beradi, Yosh munaqqid uchun adabiyot quruq g‘oyalar majmuasi emas, balki, birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan hodisadir. U odamlarning Shuurigagina emas, his-tuyg‘ulariga ham ta’sir etishi, ularni quvontirib yoki mahzun ahvolga solib, Shu orqali ijtimoiy burchini o‘tashi zarur.»¹

Falsafiy adabiyot va san’at Cho‘lpon uchun millat tarixi, zamonaviy taqdiri, kelajagi haqidagi ilg‘or ijtimoiy ideallarni falsafiy obrazlar orqali ko‘rsatgani uchun u birinchi navbatda ibrat maktabi, inson ruhini, ongini va tuyg‘ular ko‘rkamligini ifodalovchi ijtimoiy tarbiya vositasidir. Bu g‘oya adib maqolalarida, she’r, drama va nasriy asarlarida izchillik bilan rivojlantirilgan.

Cho‘lpon g‘oyasi asosida xalq ongi va ma’naviyatini boyitish masalasi, xalqni ma’rifatli qilish masalasi yotgani uchun u Yevropa va tatar qardoshlarimizda «Adabiyot kechalari» tez-tez o‘tkazilib, kishilarga ruhiy lazzat tarqatilayotgan bir zamonda bizning islom madaniyati bilan bog‘liq tariximiz va adabiyotimizdan yiroq turishimiz va anglamasligimizdan iztirobga tushadi.

Cho‘lponning adabiyotdan olinadigan falsafiy zavq uning o‘zi aytganidek, «Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘lgan, qoralangan, o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yoruq va ravshan qiladurg‘on, chang

¹ Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: «Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. – 68 б.

va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lg'on», tosh yuraklarni eritguvchi, uvushgan ko'ngillarga ruh bag'ishlovchi adabiyot edi. Cho'lpon san'at asosi – hayot va mehnatkash inson ekanligini yaxshi tushungan. U san'atning, ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida o'ynaydigan rolga yuksak baho beradi.

Serqirra ijod sohibi Cho'lpon 18 yoshida o'zbek xalqining yangi zamonaviy madaniyati shakllanishi va rivojlanishi ustida yozgan edi: «...Bizga ko'p teatru, roman kitoblari yozmoq kerakdurki, bu qarz bir xovuch ziyoli yoshlarimiz ila ahli qalamimiz ustlariga tushadi...»¹.

Cho'lpon yangi o'zbek teatri taraqqiyoti uchun uch yo'nalishda ish olib bordi: avvalo teatr sohasidagi o'z nazariy bilimini oshirish yo'lida rus va jahon teatri haqidagi kitob va maqolalarni chuqur mutoala qildi. Uning teatr xususidagi nazariy qarashlari original asar yaratishga chorladi va, nihoyat, o'z ma'naviy dunyosini boyitish va jonajon xalqi madaniyatini jahon xalqlari san'ati namunalari bilan boyitish maqsadida tarjimonlik iqtidorini yuksaltirdi. Ana Shu tariqa 20-yillardayoq o'zbek madaniyati Cho'lpon siymosida teatr nazariyotchisi, dramaturg va tarjimonga ega bo'lgan edi.

Cho'lponning 1922-23 yillarda yozilgan teatr san'atiga bag'ishlangan qator maqolalari o'sha davr teatr hayotini, teatr sahnalarida o'ynalgan asarlar ruhini, aktyorlar qiyofasini, tomoshabinlar kayfiyatini ko'z oldimizga jonli gavdalantiradi. U Fitratning «Abo Muslim Xurosoniy» tragediyasiga yozgan taqrizida Abror Hidoyatov, Mannon Uyg'ur, Sayfi Qorievlar ijrosiga baho berar ekan, spektaklga odam zich kelganini va buning sababini qayd etadi. «Xalq teatrga yurmaydi», degan gap to'g'ri emas, xalq yuradir. Lekin teatr-tomosha ismida bo'laturg'on qurchoq o'yunlarga, o'z ruhiga yot bo'lg'on, unga anglashilmayturg'on tarjimalik «g'arbi» asarlarga yurmasa haqi bordir. Yo'q esa o'zini qiziqtiraturg'on zaminlarda yozilg'on va yaxshi o'ynalaturg'on tomoshalarga xalq yuradir»².

¹ Чўлпон. «Садойи Туркистон» газетаси. 1915 йил, 6 февраль.

² Қаландар. Або Муслим. «Туркистон» газетаси. 1922 йил, 21 декабр.

Cho‘lpon xalq ruhini tuShunib olish va Shu asosda asarlar yaratish tarafdori va jonkuyari edi. Cho‘lpon teatr falsafiyasining asosida xalq hayoti bilan san‘at o‘rtasidagi hamkorlik yotadi. Sahnaning xalqqa, xalqni sahnaga yaqinlashtirishda aktyorlarning quyidagi kamchiliklariga e‘tiborni qaratadi: a) grimga jiddiy ahamiyat bermaslik; b) aktyorlarning yashirin tovush chiqarishga o‘rgana olmaganligi; v) arabiy va forsiy so‘zlarni yanglish gapirishlar¹.

Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon teatr san‘atining umumiy nazariy masalalaridan tortib, aktyor individualligi, so‘z san‘ati, sahna madaniyati, sahnada milliy xarakter va milliy obraz yaratish muammolarigacha qiziqqan va har bir aktyorning sahnadagi harakati, mahorati va uslubini kuzatib borgan.

Cho‘lponning teatrshunos sifatidagi iqtidori uning gazeta va jurnallarda bosilgan maqola, taqrizlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunga «Turkiston» gazetasida bosilgan Shamsiddin Salibekning «Kovai ohangir» (1928 yil, 6 fevral), Xusayn Jovidning «Iblis» (1928 yil, 14 mart), «Shayx San‘on» (1928 yil 6 iyun), «Malikai Turandot» («Maorif va o‘qitg‘uchi», 1927 yil, 5-son), «Moskvadagi dramstudiyamiz» («Er yuzi» jurnali, 1926 yil, 12-son), «Meyerxold teatri» («Er yuzi» jurnali, 1927 yil fevral soni), «Yana uylanaman» («Er yuzi» jurnali, 1927 yil, may soni), «O‘zbek davlat trupпасi Farg‘onada», «Talabalar o‘yini» («Zarafshon» gazetasi, 1927 yil, 9 iyun) va hokazo maqola, taqrizlar misol bo‘la oladi.

Bu maqolalarning jurnalistik xabar va publitsistik materiallardan farqi shundaki, muallif teatr san‘atini sevishi, bilishi va uning ichki sirlarini his qiluvchi san‘atshunos sifatida gavdalanadi. Cho‘lpon dramaturgiya asarlarini sahnalashtirish borasida qilingan ijodiy ishlar, rejissyor mahorati yoki kamchiliklari, aktyorlar ijrosidagi individuallik masalalariga ham qisqacha bo‘lsa-da to‘xtalib o‘tadi. Milliy dramaturgiya namunalari taqchil paytda tarjima asarlari sahnalashtirilgani sababli bu tarjimalar sifati bo‘yicha fikr yuritadi, sahna bezagi va rassom qobiliyatiga baho beradi.

¹ Қаландар. Кова оҳангар. «Туркистон» газетаси. 1923 йил, 23 февраль.

Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon sahnani juda murakkab jonli organizm sifatida tuShunadi va bu organizmni sog‘lomlashtirish, ko‘rkamlashtirish, milliy hayot va milliy madaniyatga yaqinlashtirish yo‘llarini izlaydi.

Cho‘lponning teatr falsafiyasi bilan bog‘liq hamda o‘zbek professional teatrini shakllantirish, ayniqsa, aktyorlik mahorati xususidagi qarashlari uning «Moskvada ikki turk san’atkori» degan maqolasida o‘z aksini topgan.

Cho‘lpon Moskvada yashayotgan ikki turk san’atkori haqida ma’lumot berish bilan cheklanmay, bu voqeaga ancha keng va chuqur yondoshadi. Nima uchun jahon ko‘rgan ikki san’atkor (Er To‘g‘rul Muslimbek va «Munira Ayyub» ismli qiz, sahnada «Naiyra Naiyr» nomi bilan tanilgan) Moskvaga kelib qoldi? Bu savolning tagida sabab va ma’nolar ko‘p. Cho‘lpon buni o‘sha davrdagi Moskva falsafiy muhitining jahon san’ati taraqqiyotida o‘ynagan roli va ahamiyati bilan bog‘laydi. «Bu kungi Moskov, – deb yozadi Cho‘lpon, – ingichka san’atning yuksakligi jihatidan G‘arb poytaxtlarining hammasidan oldinda turadi. «Masalan, «Xudojestvennyy teatr»ga o‘tmishda ham, hozir ham teng keladigan teatr yo‘q. Cho‘lpon «Xudojestvennyy teatr»ning faqat Rossiyadagina emas, chet el teatrlariga ham ta’sir qilayotganini ta’kidlaydi.

Maqoladan ma’lum bo‘lishicha, Cho‘lpon Rossiya teatr san’atidagi g‘oyaviy-falsafiy yo‘nalishlarga ham e’tiborni tortadi va an’anaviy teatrlar qatorida Oktyabr inqilobidan so‘ng «Meeyorxold teatri» deb nom olgan yangi san’at dargohi vujudga kelganini aytadi. «Bu – chinakam inqilob teatri; uning har narsasi degandek yangi, Shu bilan birga, u yangiliklar ham muqarrar o‘rnashmagan – «vaqtili» narsalar. Shu uchun bu muassasani uqtirg‘on vaqtda «Istash teatri» deb qo‘yadilar bu to‘g‘ri uqtirish, haqiqatan «Meeyorxold teatri» har kungi talabga qarab yangi yo‘l axtaradir»¹.

Cho‘lpon Meeyorxold teatrining g‘oyaviy tamoyillarini belgilashga harakat qiladi: Meeyorxold teatri – tamomila yangi hodisa; u inqilob tufayli vujudga kelgan; uning yangiligi o‘zgaruvchan zamon ruhi bilan sug‘orilgan; u tasodifan

¹ Чўлпон. Москвада икки турк санъаткори / Нашрга тайёрловчи: Улугбек Долимов. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 1991 йил, 3-май.

paydo bo'lmagan, «istash» tufayli, inqilobiy o'zgarishlar bilan ilhomlangan kishilarning ma'naviy ehtiyojini qondirayotgan falsafiy muassas; bu teatr nainki qadimiy an'analarni chetlab o'tadi, balki o'z an'alariga ham qattiq yopishib turmaydi, har kun, har bir tarixiy o'zgarishlar, hayot taqozosi, falsafiy talablarga binoan o'z yo'lini, uslub va rejalarini o'zgartirib turadi. Shu ma'noda Meyyoxold teatri Moskvadagi o'z yo'llarini qidiruvchi, san'atda eksperiment va kashfiyot qilishga intiluvchi teatrlarning yorqin namunasi sifatida baholanadi.

Ko'rinib turibdiki, Cho'lon XX asr san'ati taraqqiyotidagi asosiy tendensiyalar – an'anaviy va zamonaviy falsafiy intilishlarni to'g'ri his qiladi va ko'proq rivojlanish jihatidan yangilanish va turlanishga molik bo'lgan izlanishlarga xayrihohlik bildiradi.

«Er yuzi» jurnalining topshirig'i bilan Cho'lon keyinchalik «Meyyoxold teatri» nomli maqola yozadi. U Meyyoxoldga bo'lgan ikki xil munosabatni ochib beradi. Birida maqtovchilar uni «Rus teatrining mumtoz san'atkori» desalar, muxoliflari «eng buyuk muallimlardan birining xatosi» deb uning ustoz san'atkor ekanligini har holda tan oladilar. Cho'lon e'tiroficha, Meyyoxoldning katta shijoatkorligi va g'ayrati tufayli teatrdagi yangi asoslar amalga oshirila boshlangan. Cho'lon Meyyoxold tomonidan olg'a surilgan sahnani soddalashtirish, ortiqcha detallardan, buyumlardan holi qilib, xalqqa yaqinlashtirishni maqsad qilib qo'yganini mamnuniyat bilan gapiradi. Bunday «o'ziga hamma vaqt yangi yo'llar aktarg'on»¹ Meyyoxold teatri tom ma'noda XX asrning mo'jizasi tarzida namoyon bo'la boshlagan edi. Meyyoxold klassik asarlarnimi, zamonaviy asarlarnimi, qaysi birini sahnalashtirmasin, yangi sahnaviy usul topishga, ko'pincha parda, dekoratsiya va sahna oldi fonorlaridan foydalanmaslikka harakat qilardi. Cho'lon Meyyoxold spektakllarida kino san'ati ta'siri ham mavjudligini, barcha tomoshalarda keng xalq ommasi diqqatini o'ziga jalb etish tendensiyasi borligini ta'kidlaydi. Maqolaning falsafiy ahamiyati Shundaki, unda yangi shakllanayotgan o'zbek milliy teatri o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi bilan ajralib turishiga doir xulosalar bayon etilgan.

¹ Чўлпон. Мейёрхольд театри. Нашрга тайёрловчи С.Аҳмад // Санъат. –Тошкент, 1991. -№ 10. – 19 б.

Moskva 20-yillarda san'at sohasidagi dunyoviy izlanish va o'rganishlarning markaziga aylanadi. Moskvaning o'sha yillardagi san'ati bilan tanishmoq va undagi yangi jarayonlarni o'rganmoq uchun Turkiyadan ikki san'atkor – kino va teatr rejissyori (muallim)lardan er To'g'ul Muhsinbek hamda kino va teatr aktrisalardan Naiyra Naiyrxonimlar kelishgan edi.

Fransiya va Germaniyalarda tahsil olgan va tanilgan Muhsinbek O'zbekistonning ko'p shaharlarida qo'yilgan mashhur «Millionli Xotin» spektakliga rejissyorlik qilgan. Bundan tashqari, Muhsinbekning «Bizning Buxoro hayotidan olinib yozilgan bir asari hozir Istambulda bosilib» yotgani haqida xabar beriladi. Cho'lpon o'zining «Tursunoy sahnada» maqolasida Tursunoyning Klariche obrazini yaratish mahoratini tahlil qilar ekan, sahna obrazi bilan aktyor tabiati, individual xususiyatlari va insoniy sifatlari o'rtasida ziddiyatli birlik mavjudligini, har bir aktyor obraz mohiyatini o'zicha va betakror ochishini ta'kidlaydi. «Doim kulib va jilmayib yuradigan» Tursunoy sahnada o'z «jonli va sho'x» tabiatidan kelib chiqib dramaturg yaratgan xarakterning Shunday qirralarini ochib tashlar ediki, go'yo mazkur obraz Tursunoy uchungina yaratilganday tuyulardi. Ana Shuning uchun «Tursunoy Klarichesida bir umr esdan chiqmaydigan joylar bor ediki, bilmayman, yosh sahnamiz yana o'shanday bir tasvirni qachon ko'ra oladi?»¹ deb o'ziga o'zi savol beradi Cho'lpon.

Cho'lpon Tursunoy haqidagi esdaliklarida aktrisaning Fitratning «Arslon» asaridagi kichkina rolni bir umrga esda qoladigan darajada o'ynaganini ta'kidlaydi.

Cho'lpon teatr va aktyorlik san'ati sirlarini nihoyatda chuqur bilgan. U teatr falsafiyasining asoslaridan hisoblanadigan ikki masalaga ahamiyat beradi: birinchidan, aktyorning tabiiy ovoz, so'z ohangi; ikkinchidan harakat poetikasi. Tursunoy bu ikki nodir insoniy salohiyatlarni o'zida jamuljam etgan va sahnada yana bu ikki qanotiga ruhiy Shuur va ilhombaxsh eta oladigan san'atkor bo'lgan. Tursunoyning aktyorlik, insoniylik va san'atkorlik salohiyatlari uyg'unligini Cho'lpon yuksak baholaydi.

¹ Чўлпон. Турсуной сахнада / Нашрга тайёрловчи. Сирожиiddин Аҳмад // Санъат. –Тошкент, 1991. - № 3. – 15 б.

Cho'lponning Tursunoy haqidagi esdaliklarida uning teatr falsafiyasining asosini tashkil etuvchi hayot haqiqati va talant tabiiyligi, ilhom quvvati va obrazli ijro qudrati xususida gap boradi. Cho'lponning falsafiy qarashlari, ayniqsa, uning teatrshunoslikka oid, aktyorlar hayoti va ijodini tahlil qilib yozgan maqolalarida o'z aksini topgan. Ularda Cho'lpon milliy teatr, musiqa kelajagi bo'yicha nechog'lik jonkuyarlik ko'rsatgani, bu sohadagi har bir yangilik, har bir tashabbusi qo'llab-quvvatlangani ko'zga tashlanadi.

Xalqni ma'rifatli, ommani ma'naviyatli va yoshlarni milliy qadriyatlarimizning yuksak namunalari bilan bahramand bo'lishi ustida qayg'urgan Cho'lpon teatr va musiqa taraqqiyoti yo'lidagi barcha tashabbusni qo'llab-quvvatladi. Uning falsafiy qarashlari demokratik g'oyalar va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. Bu jihatdan uning «Qiziqqlar» maqolasi unda ko'tarilgan muammolar ko'lemi va Mutafakkirning teatrshunos sifatida bu san'at ahvoli va istiqboli xususidagi teran, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan fikrlari bilan ibratlidir.

Yuzaki qaraganda maqola faqat qiziqchilik san'ati, askiyabozlik haqida yozilganday tuyuladi. Aslida askiyaboz va qiziqchi hayotidan lavha bilan boshlanadi. Lekin Cho'lpon qiziqchilarning o'tkir so'zlari orqasida kuchli ijtimoiy motivlar yotganini ko'radi. Qiziqchi bilan xon o'rtasida bo'lib o'tgan askiyadan xulosa chiqarar ekan, Mutafakkir, o'tmish zamonlardagi Saroy yozuvchilari haqida Shunday fikrga keladi: «Odatda, Saroy mojarolarini ko'proq saroyning xos tarixchilari «voqeanavistlar» yozar edilar. Ularning ko'pchiligi quruq maqtovchidan iborat bo'lishgan. Podshohga til tekiza olmoq, ularni haq va haqiqat ustida bir oz tanqid qila bilmak uchun Firdavsiy va Fuzuliy kabi saroydan yiroq turgan va yuksak Mutafakkirlik maqomiga erishgan kishilar kerak edi»¹.

Cho'lponning teatr hamda musiqa falsafiyasiga doir qarashlaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, xon saroylaridagi tarixchilar ko'proq madhiyabozlik qilishga majbur bo'lganlar.

¹ Чўлпон. Қизиқлар / Нашрга тайёрловчи Сирожиiddин Аҳмад // Санъат. –Тошкент, 1991. - № 9. -Б. 18.

Ikkinchidan, haq soʻzni erkin aytish uchun Firdavsiy va Fuzuliy kabi saroydan yiroqda turib qalam tebratmoq lozim boʻlgan.

Uchinchidan, bunday erkinlik faqat yuksak Mutafakkirlik maqomi, iqtidori tufayligina amalga oshadi; toʻrtinchidan, qiziqchilar, askiyabozlar xalq orasidan etilib chiqqanlar va oʻzlarini adolat va haqiqat jarchilari sifatida his qilgan sanʼatkorlardir.

2.2. Choʻlpon ijodida Sharq va Gʻarb muammolarining falsafiy tahlili.

Maʼlumki, XX asrga kelib Sharq Gʻarb masalasi keskin ijtimoiy-tarixiy va maʼnaviy qarashlar maydoniga aylangan edi. Sharq mamlakatlarining Gʻarb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning Shundoq ham ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidagi sustkashlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi. Bunga qarama-qarshi tarzda ilgʻor kuchlarning, maʼrifatparvar kishilarning Sharq ozodligi va mustaqilligi yoʻlidagi harakatlari, faoliyatlari kuchaya boshlagan davr edi. Shunga binoan falsafiy ijodiyotda, ham siyosiy mavzular koʻproq koʻtarildi, Sharq va Gʻarb mamlakatlarida yashovchi xalqlarning turmush tarzi qiyoslana boshlandi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi. Ismoil Toʻlakov yozishicha, «Oq va Qora, Tun va Kun, Gʻarb va Sharq asr boshlariga kelib falsafiy ijodda oʻzlikni anglash va uni saqlab qolish tuygʻularini ifodalash vositasi sifatida sheʼriyatda mustahkam oʻrin tuta boshladi»¹.

Mullanur Vohidovga qarata «Sharqning qaysi burchagiga qarasang, yoʻqlik, oʻlim, zulm, qarshi koʻrarding», axir Sharq bu buyuk tarix va madaniyatlar timsoliku deb xitob qiladi.

Sharqni Misr ehromlari va Nil daryosi, fallohlar toʻyi, Suriya shomiyu, Himolay togʻi, hind qizi, Nishopur bogʻlari, Xayyom gʻazallari, Konfutsiy falsafasi, Zardoʻsht taʼlimoti, Bedil kalomlarisiz tasavvur etib boʻlmaydi. «Sharq» deganda Mutafakkir buyuk maʼnaviyat saltanatini va bu madaniyatni barpo etgan shaxslar, davrlarni tilga oladi. Biroq uning yuragini tilka-pora qilgan savol va javoblar mavjud:

Bir zamonlar er yuzinda oʻz boshli

¹ Тўлаков Исмоил. Чўлпон маҳорати. Андижон: «Меҳр» нашриёти, 1997. – 37 б.

Ulugʻ, shonli, madaniyat tugʻdirgʻon
U goʻzal Sharq, shirin tuproq soʻng zamon
Boʻldi chetlar panjasida koʻz yoshli...
(«Sharq nuri»).

Mutafakkir biron oʻrinda Turkiston, oʻzbek yoki Samarqandu Buxoro kabi Sharq mashʼallarini tilga olmaydi. Lekin uning tafakkur tarzi Shu zaminni koʻzda tutayotgani, Shu el va yurtni oʻylab qalam tebratgani maʼlum.

Mutafakkirni iztirobga solgan asosiy masala – bu koʻhna va goʻzal, madaniyatli va shirin tuproqli Sharqning «chetlar panjasida koʻz yoshli...» boʻlib qolganligi. «Gʻarb» deb atalgan umumiy dushman tomonidan bosib olinib, oyoq osti qilingani.

Agar «Sharq nuri»da hali Mutafakkirning falsafiy ideali ijtimoiy idealining bevosita ifodasi darajasiga oʻsib chiqmagan va taʼkidlash bilan chegaralangan boʻlsa, oradan 2 yil oʻtib uning «Qizil Baynalminal» sheʼri paydo boʻladiki, unda Mutafakkir Sharq va Gʻarb mavzusini ancha chuqur va keng koʻlamda ifoda etishga muvaffaq boʻladi. Sheʼrda Sharqning ozodlikka erishish va istiqboli masalasi koʻtariladi.

Choʻlpon Sharq va Gʻarb obrazini nihoyatda taʼsirchan chizib beradi. Sharqning havosi anchadan buyon buzilgan, uni «oppoq qoʻllar» buzgan. Sharq ellari yot ellardan kelgan, oʻzlarini madaniyat yaratuvchilar deb bilgan bir hovuch odamlar qoʻlida ezilmoqda. Sharq kishisi qatiq esa noni yoʻq, non topolsa choyi yoʻq, bir hovuchlar boyligini qoʻyishga joy topmas. Shu tariqa Sharqda bir oila ichida olti-etti kishi ochidan oʻlmoqda; Gʻarbda ahvol oʻzgacha. Bazmgohlar, bogʻchalar semizlikdan yuzi qizil odamlarga toʻlib ketgan. Kimni aqchasi boʻlsa u ulugʻ va hurmat egasi... ammo isroflarning oxiri yoʻq, restoran va bogʻchalarda buzuqlik, tubanlik va ifloslik.

Koʻrinib turibdiki, Choʻlpon oʻn olti satrlik mazkur lirik sheʼrga ijtimoiy maʼno ham bagʻishlab, kuz obrazini mustabid tuzum mohiyatini ochuvchi timsol darajasiga koʻtaradi. «Shu tarzda tabiat manzaralari Choʻlpon lirikasida beixtiyor

jamiyat manzaralari bilan uyqash holda tasvir etiladi»¹. Shuningdek, bu she'rlar Cho'loning nainki poetik dahosi, balki yuksak insoniy jasoratidan, xalqparvar, elparvar shaxs ekanligidan ham darak beradi.

Poeziyasidagi shartli ishoralar, majoziy obrazlar o'lka tanasidan oqayotgan qon tomchilari kabi turlanib, mutafakkir poeziyasidagi botiniy va zohiriy ma'nolarning ulug'vor ko'lamini tashkil etadi. Uning she'rlaridagi umumiy Sharq mavzusi asta-sekin haqiqatparvar el va yurt tomon siljidi va qator she'rlarida Turkiston xalqlarining zamonaviy tarixi va taqdirini ifoda eta boshladi. Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turganimiz milliy g'oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tarkibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi.

Avvalo "millat" va "milliylik haqida". "Mulla Nasriddin" jurnalining muxarriri, "O'liklar" dramasi bilan Toshkentning "Kolizeyi"da mahalliy xalqni larzaga solgan Jalil Mamadqulizodaning "Millat" nomli maqolsi bor. Ma'lum bo'lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi, bundan sal kam 2 yarim ming yil muqaddam yashagan Demokrit tomonidan qo'llanilgan ekan. U bu tushinchani "har bir mamlakatning yagona sababi" deb tushintiradi. Shundan so'ng qancha zamon o'tib, XVIII asr fransuz inqilobi davrida bu masala yana o'rta tushdi, biroq hali ham bu tushincha ayrim xalqlarda shakllanib ulgurgan emas, deb davom etadi adib.²

Bunga Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, din va irq masalasi, millat va mahzab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamonda chetga surib qo'yilgan emas. Aksincha xamisha diqqat e'tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta'riflar ekan, "shams ul-millat", "zayn ul-millat", "nur ul-millat" sifatlarini qo'llaydi. Ehtimol, buyuk bobolarimizning millat xaqidagi tushinchalari u xaqidagi bugungi ko'z-qarashlarimizdan birmuncha farqlanar (masalan, u millat bilan dinni xamisha yonma-yon, xatto sinonim darajasida qo'llaydi). Biroq fakt Shuki, u millatni insoniyatning yashash shakli sifatida tushinadi va uni ma'lum diniy,

¹ Каримов Наим. Истиклолни уйғотган шоир. –Тошкент: Маънавият, 2000. -55 б.

² Қосимов Б. "Миллий уйғониш" Т., "Маънавият" 2002 йил

xududiy, insoniy qiyofada, muayyan asliy xususiyatlariga ega xolda tasavvur etadi. Bunday tushinish XVIII asrdan Ovro‘pada konkretlashib boradi va 3-Salimning “Nizomi Jadid”i, ayniqsa, Mustafo Rashid Poshoning 1837 yilgi “Tanzimot farmoni”dan so‘ng Usmonli Turkiyasiga, undan Kavkaz, Volgabo‘yi orqali Turkistonga keldi. O‘z navbatida bu g‘oya va tushinchalar bevosita Ovro‘pa orqali Rusiyaga yoyildi, undan o‘sha davr chor tuzimi istilohi bilan aytganda, “g‘ayrirus musulmonlar”ga o‘tdi. Millat tushinchasiga yana bir ibora “Tarjimon” gazetasining 1908 yil 58-sonida muxarrirning “Millat” nomli bir maqolasi bosilgan. Muallif “Millat nodir?” degan savol qo‘yadi va bu boradagi G‘arbu Sharqning nazariyalarini keltirarkan, yoshligidan qulog‘iga quyilgan “din va millat birdir” degan fikrga to‘xtaladi. Uningcha bu g‘oyat “eski nazarya”, “siyosiy nazariya”. Uni islom fuqarosi musoviylardan-yaxudiylardan olgan. Turklar, eroniylar tarixi shuni ko‘rsatadiki, ular islomlashdilar, lekin arablashmadilar, turklikni, eronlikni saqlab qoldilar. Demak bu nazariya ilmiy asosga ega emas.

Endi g‘oya haqida I.Gasprinskiy 1895 yilda yozgan maqolalaridan birini “G‘oya” deb yozgan edi. Uningcha, xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kashfiyotlar, avvalo ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan.

Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir xovuch arablar atrofiga birlashtirildi. Moskva atrofiga birlashuv g‘oyasi qudratli Rusiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqeini Ovro‘pada sarbaland qildi.

G‘oyasizlik – chi! Millatni zaiflantiruvchi, turg‘inlikka – tanazzulga olib boruvchi mana Shu g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste’dodiga guvoh bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so‘ngi ming yil davomida o‘zlarini ko‘rsata olmay, nega boshqalar etoviga tushib qoldilar? Sababi – g‘oyasizlik,- deb tushintiradi muallif¹.

¹ Турсунов И. Истиқлолга интилган қалблар нидоси. -Фарғона: Фарғона политехника институти босмаҳонаси, 1993. -138 б.

Shundan keyin u Rusiya qo‘l ostidagi musulmonlar hayotiga o‘tadi. “Taasufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakkam g‘oya, orzu yo‘q, - deb yozadi muallif. – Ular yolg‘iz Shu kunning, shu daqiqaning manfaati, Shu birgina qorinni to‘qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni tabir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo‘shiqlar, o‘zi bir qarich, soqoli bir qarich polvon haqidagi kitoblar ko‘p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatuvchi, ahvolimizni tushintirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o‘ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo‘q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi.

Shu g‘oya bilan ish tutilsa, millatning rivojlanishiga, ma‘rifatli avlod shakllanib hayotning go‘zallashishiga Ismoilbek dil-dildan ishonadi.

Bugina emas, a‘zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o‘lchanadi” – deb yozadi Ismoilbek 1908 yilda “Ilm va ma‘rifat davri” maqolasida. Ilm-hunar, g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiritadi. G‘ayrat va mehnat esa ilmu xunar tufayli samara beradi. Bular o‘zaro bog‘liq. Qavmining ko‘pchiligi jismonan sog‘ bo‘lib, ilmu-hunardan bebaxra qolishi va hayoti parishon bo‘lib, o‘zini ximoya qilmoqdan ojiz xolga tushishi mumkin. Ilmu – marifatda quvvatli Ovro‘pa millatlarning sog‘lom Afrikaning asoratga olishlari bejiz emas.

Bugun biz yuzma-yuz bo‘lib turganimiz milliy g‘oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tarkibiga qo‘yilgan va qizg‘in muhokama qilingan edi.

Avvalo “millat” va “milliylik haqida”. “Mulla Nasriddin” jurnalining muxarriri, “O‘liklar” dramasi bilan Toshkentning “Kolizeyi”da mahalliy xalqni larzaga solgan Jalil Mamadqulizodaning “Millat” nomli maqolsi bor. Ma‘lum bo‘lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi, bundan sal kam 2 yarim ming yil muqaddam yashagan Demokrit tomonidan qo‘llanilgan ekan. U bu tushinchani “har bir mamlakatning yagona sababi” deb tushintiradi. Shundan so‘ng

qancha zamon o'tib, XVIII asr fransuz inqilobi davrida bu masala yana o'rta tushdi, biroq hali ham bu tushincha ayrim xalqlarda shakllanib ulgurman emas, deb davom etadi adib.¹

Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, din va irq masalasi, millat va mahzab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamonda chetga surib qo'yilgan emas. Aksincha xamisha diqqat e'tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta'riflar ekan, "shams ul-millat", "zayn ul-millat", "nur ul-millat" sifatlarini qo'llaydi. Ehtimol, buyuk bobolarimizning millat xaqidagi tushinchalari u xaqidagi bugungi ko'z-qarashlarimizdan birmuncha farqlanar (masalan, u millat bilan dinni xamisha yonma-yon, xatto sinonim darajasida qo'llaydi). Biroq fakt Shuki, u millatni insoniyatning yashash shakli sifatida tushinadi va uni ma'lum diniy, xududiy, insoniy qiyofada, muayyan asliy xususiyatlariga ega xolda tasavvur etadi. Bunday tushinish XVIII asrdan Ovro'pada konkretlashib boradi va 3-Salimning "Nizomi Jadid"i, ayniqsa, Mustafo Rashid Poshoning 1837 yilgi "Tanzimot farmoni"dan so'ng Usmonli Turkiyasiga, undan Kavkaz, Volgabo'yi orqali Turkistonga keldi. O'z navbatida bu g'oya va tushinchalar bevosita Ovro'pa orqali Rusiyaga yoyildi, undan o'sha davr chor tuzimi istilohi bilan aytganda, "g'ayrirus musulmonlar"ga o'tdi. Millat tushinchasiga yana bir ibora "Tarjimon" gazetasining 1908 yil 58-sonida muxarrirning "Millat" nomli bir maqolasi bosilgan. Muallif "Millat nodir?" degan savol qo'yadi va bu boradagi G'arbu Sharqning nazariyalarini keltirarkan, yoshligidan qulog'iga quyilgan "din va millat birdir" degan fikrga to'xtaladi. Uningcha bu g'oyat "eski nazariya", "siyosiy nazariya". Uni islom fuqarosi musoviylardan-yaxudiylardan olgan. Turklar, eroniyalar tarixi Shuni ko'rsatadiki, ular islomlashdilar, lekin arablashmadilar, turklikni, eronlikni saqlab qoldilar. Demak bu nazariya ilmiy asosga ega emas.

Endi g'oya haqida I.Gasprinskiy 1895 yilda yozgan maqolalaridan birini "G'oya" deb yozgan edi. Uningcha, xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g'oya yotadi. Eng ulug' kashfiyotlar, avvalo ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan.

¹ Қосимов Б. "Миллий уйғониш" Т., "Маънавият" 2002 йил

Islom g'oyalari yarim dunyoni bir xovuch arablar atrofiga birlashtirildi. Moskva atrofiga birlashuv g'oyasi qudratli Rusiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g'oyasi fransuzlar mavqeini Ovro'pada sarbaland qildi.

G'oyasizlik – chi! Millatni zaiflantiruvchi, turg'inlikka – tanazzulga olib boruvchi mana Shu g'oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste'dodiga guvoh bo'lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz milion xitoylar, hindlar so'ngi ming yil davomida o'zlarini ko'rsata olmay, nega boshqalar etoviga tushib qoldilar? Sababi – g'oyasizlik,- deb tushintiradi muallif¹.

Shundan keyin u Rusiya qo'l ostidagi musulmonlar hayotiga o'tadi. "Taasufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakkam g'oya, orzu yo'q, - deb yozadi muallif. – Ular yolg'iz Shu kunning, Shu daqiqaning manfaati, Shu birgina qorinni to'qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni tabir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo'shiqlar, o'zi bir qarich, soqoli bir qarich polvon haqidagi kitoblar ko'p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatuvchi, ahvolimizni tushintirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o'ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo'q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o'z oldimizga vazifa va orzu qilib qo'ymoq kerak emasmi.

Shu g'oya bilan ish tutilsa, millatning rivojlanishiga, ma'rifatli avlod shakllanib hayotning go'zallashishiga Ismoilbek dil-dildan ishonadi.

Bugina emas, a'zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o'lchanadi" – deb yozadi Ismoilbek 1908 yilda "Ilm va ma'rifat davri" maqolasida. Ilm-hunar, g'ayrat va mehnat bilan qo'lga kiritadi. G'ayrat va mehnat esa ilmu xunar tufayli samara beradi. Bular o'zaro bog'liq. Qavmining ko'pchiligi jismonan sog' bo'lib, ilmu-hunardan bebaxra qolishi va hayoti parishon bo'lib, o'zini ximoya qilmoqdan ojiz xolga tushishi

¹ Турсунов И. Истиқлолга интилган қалблар нидоси. -Фарғона: Фарғона политехника институти босмаҳонаси, 1993. -138 б.

mumkin. Ilmu – marifatda quvvatli Ovro‘pa millatlarning sog‘lom Afrikaning asoratga olishlari bejiz emas.

Bugun biz yuzma-yuz bo‘lib turganimiz milliy g‘oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tarkibiga qo‘yilgan va qizg‘in muhokama qilingan edi.

Avvalo “millat” va “milliylik haqida”. “Mulla Nasriddin” jurnalining muxarriri, “O‘liklar” dramasi bilan Toshkentning “Kolizeyi”da mahalliy xalqni larzaga solgan Jalil Mamadqulizodaning “Millat” nomli maqolsi bor. Ma’lum bo‘lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi, bundan sal kam 2 yarim ming yil muqaddam yashagan Demokrit tomonidan qo‘llanilgan ekan. U bu tushinchani “har bir mamlakatning yagona sababi” deb tushintiradi. Shundan so‘ng qancha zamon o‘tib, XVIII asr fransuz inqilobi davrida bu masala yana o‘rtaga tushdi, biroq hali ham bu tushincha ayrim xalqlarda shakllanib ulgurgan emas, deb davom etadi adib.¹

Bunga Shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, din va irq masalasi, millat va mahzab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamonda chetga surib qo‘yilgan emas. Aksincha xamisha diqqat e‘tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta’riflar ekan, “shams ul-millat”, “zayn ul-millat”, “nur ul-millat” sifatlarini qo‘llaydi. Ehtimol, buyuk bobolarimizning millat xaqidagi tushinchalari u xaqidagi bugungi ko‘z-qarashlarimizdan birmuncha farqlanar (masalan, u millat bilan dinni xamisha yonma-yon, xatto sinonim darajasida qo‘llaydi). Biroq fakt Shuki, u millatni insoniyatning yashash shakli sifatida tushinadi va uni ma’lum diniy, xududiy, insoniy qiyofada, muayyan asliy xususiyatlariga ega xolda tasavvur etadi. Bunday tushinish XVIII asrdan Ovro‘pada konkretlashib boradi va 3-Salimning “Nizomi Jadid”i, ayniqsa, Mustafo Rashid Poshoning 1837 yilgi “Tanzimot farmoni”dan so‘ng Usmonli Turkiyasiga, undan Kavkaz, Volgabo‘yi orqali Turkistonga keldi. O‘z navbatida bu g‘oya va tushinchalar bevosita Ovro‘pa orqali Rusiyaga yoyildi, undan o‘sha davr chor tuzimi istilohi bilan aytganda, “g‘ayrirus musulmonlar”ga o‘tdi. Millat tushinchasiga yana bir ibora “Tarjimon” gazetasining

¹ Қосимов Б. “Миллий уйғониш” Т., “Маънавият” 2002 йил

1908 yil 58-sonida muxarrirning “Millat” nomli bir maqolasi bosilgan. Muallif “Millat nodir?” degan savol qo‘yadi va bu boradagi G‘arbu Sharqning nazariyalarini keltirarkan, yoshligidan qulog‘iga quyilgan “din va millat birdir” degan fikrga to‘xtaladi. Uningcha bu g‘oyat “eski nazarya”, “siyosiy nazariya”. Uni islom fuqarosi musoviylardan-yaxudiylardan olgan. Turklar, eroniylar tarixi shuni ko‘rsatadiki, ular islomlashdilar, lekin arablashmadilar, turklikni, eronlikni saqlab qoldilar. Demak bu nazariya ilmiy asosga ega emas.

Endi g‘oya haqida I.Gasprinskiy 1895 yilda yozgan maqolalaridan birini “G‘oya” deb yozgan edi. Uningcha, xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kashfiyotlar, avvalo ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan.

Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir xovuch arablar atrofiga birlashtirildi. Moskva atrofiga birlaShuv g‘oyasi qudratli Rusiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqeini Ovro‘pada sarbaland qildi.

G‘oyasizlik – chi! Millatni zaiflantiruvchi, turg‘inlikka – tanazzulga olib boruvchi mana Shu g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste’dodiga guvoh bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so‘ngi ming yil davomida o‘zlarini ko‘rsata olmay, nega boshqalar etoviga tushib qoldilar? Sababi – g‘oyasizlik,- deb tushintiradi muallif¹.

Shundan keyin u Rusiya qo‘l ostidagi musulmonlar hayotiga o‘tadi. “Taasufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakkam g‘oya, orzu yo‘q, - deb yozadi muallif – Ular yolg‘iz Shu kunning, shu daqiqaning manfaati, Shu birgina qorinni to‘qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni tabir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo‘shiqlar, o‘zi bir qarich, soqoli bir qarich polvon haqidagi kitoblar ko‘p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatuvchi, ahvolimizni tushintirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak

¹ Турсунов И. Истиклолга интилган қалблар нидоси. -Фарғона: Фарғона политехника институти босмахонаси, 1993. -138 б.

xususida o‘ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo‘q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi.

Shu g‘oya bilan ish tutilsa, millatning rivojlanishiga, ma‘rifatli avlod shakllanib hayotning go‘zallashishiga Ismoilbek dil-dildan ishonadi.

Bugina emas, a‘zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o‘lchanadi” – deb yozadi Ismoilbek 1908 yilda “Ilm va ma‘rifat davri” maqolasida. Ilm-hunar, g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiritadi. G‘ayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o‘zaro bog‘liq. Qavmining ko‘pchiligi jismonan sog‘ bo‘lib, ilmu-hunardan bebaxra qolishi va hayoti parishon bo‘lib, o‘zini himoya qilmoqdan ojiz xolga tushishi mumkin. Ilmu – marifatda quvvatli Ovro‘pa millatlarning sog‘lom Afrikaning asoratga olishlari bejiz emas.

Shu tariqa xar bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi, jadidlarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi.

1. G‘oya millatning tub, asil ehtiyojlaridan, turish turmishidan, asriy an‘analaridan, o‘zligidan, va tabiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog‘i lozim.

2. Mazkur g‘oya millat tomonidan anglanishi, xis qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o‘tga aylanmog‘i, so‘ngsiz ishtiyoq xosil qilmog‘i kerak.

Tabiyki, har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun, jahon ilmu-fan yangiliklaridan, umum insoniy g‘oyalardan foydalanmog‘i shart. Lekin bir muxim bir shart bilan. Bu fikr – g‘oyalar millatning qalbi va ongidan o‘tmog‘i, “Milliylashmog‘i” kerak. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi.¹

Bunda buyuk masuliyat ziyoli zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini dil-dildan anglovchi va uni oldinga boshlovchi ziyoli sinfidir. Buning uchun esa o‘sha ziyolining o‘zi “milliy ahloq va tarbiya egasi” bo‘lmog‘i kerak.

Dunyoda yashab turgan har bir millatning o‘z fe‘li – tabiatidan, hayot sharoiti va turmish tarzidan, maslak – e‘tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari

¹ Назаров Қ. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлари. -Т.: Ўзбекистон, 1994. -86 б.

bilan mustahkamlanib, takomillashib borgan va boradigan fikr-qarashlari tizimi bor. Menimcha milliy mafkura degani – Shu. Bu xalq qanday xalq? Tarixiy ona vatani qaerda? Do‘stlari? Dushmanlari? Dushmanga aylangan do‘stlari? Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli. Iroda tuzimi, askar tuzimi. Zehniyati, zavqididi, imon-etiqodi kabi millatning tarixi, turmishi bilan bog‘liq o‘nlab masalalarni oydinlashtirmasdan, u haqda aniqroq birnarsa deyish qiyin.¹

“Mafkura” – “fikir”dan olingan. Fikr – g‘oya demakdir albatta. Fikr – g‘oya ko‘proq “xikmatliso‘zlar”da, maqollarda saqlanib qolgan. 1505 yilda Xusayn Bayqaroning temuriylar qo‘shinini Shayboniyga qarshi birlashtirgan muhokama qilinadigan yig‘inga taklifiga javoban esa, “El ayoq bila borsa, biz bosh bila borgaymiz. El tayoq bila borsa, biz tosh bila borgaymiz”, - deb yozadi. Bu millatning muhabbatiga, sadoqatiga timsol. Muhabbat va sadoqatning bu millatda hech qachon chala-chulpa bo‘lmaganligiga, xamisha butun kelganiga dalil.

Shunday Mutafakkirlar bo‘ladiki, ular uchun biror fikr yoki hayotiy voqea, hodisa va xabar turtki bo‘lib, uni she’rga solishga, Shu voqea munosabati bilan o‘z fikrini, tasavvurlarini izhor etishga muvaffaq bo‘ladi: Shunday Mutafakkirlar bo‘ladiki, ularni umumiy bir g‘oya, falsafiy tuShuncha yoki hayotiy, insoniy haqiqat qiziqtirib qo‘yadi va Shunga mos keluvchi voqealar mantiqidan she’riy marjonlar to‘qiydi; yana Shunday Mutafakkirlar bo‘ladiki, yozilajak she’ri yoki she’riy badiasining yakunlovchi fikri avvaldan aniq bo‘lib, to‘qilgan satrlar ana Shu fikr mag‘zini har tomonlama tavsiflashga qaratilgani seziladi.

Cho‘lpon – Mutafakkir Pushkin singari hissiyotlar va kechinmalar ortidan bulbul o‘z tovushiga mahliyo bo‘lib sayragani kabi tuyg‘ular shalolasiga sho‘ng‘ib ketadi. Bu shalola qaysi manzilga eltadi, qanaqa yangidan-yangi voqealar, tashbehlar va kechinmalarga duchor etadi, ularni oldindan aytish qiyin.

Bu toifa Mutafakkirlarga buning ahamiyati ham yo‘q, Chunki ular bunday xayolot kemasiga tushgach, unda kuchi etgancha, irodasi chidaguncha va xayoli qamraguncha, so‘z gavharlari etguncha doimiy qalqib va balqib, entikib va tinib,

¹ Каримов И.А. “Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура” Т., “Ўзбекистон” 1993 йил 74-бет

oldinga, yana oldinga – she'riyatning mo'jizakor manzillari, nafosatning bezavol Shu'lalari sari intiladi.

Darhaqiqat, «Mutafakkir Cho'lponning buyukligi va buyuk Cho'lponning Mutafakkirligi xuddi ana Shu oddiy va beminnat izhori dilda edi. U mana Shu muhabbat tufayli boshini dorga qo'yib berdi. Majnun bo'lib elni sevgani, muhabbatdan bo'lak uning hech narsasi qolmagani uchun, el deb, qadrdon o'lka deb har nafasda kuyub yurgani uchun, Vatanini Ka'ba sanab, unga sajda qilib, bo'yin eggani uchun pok vijdonli ko'ragini razolat o'qiga tutib berdi»¹.

Bu degan so'z, ya'ni muhabbat ustuvorligi Pushkin va Cho'lpon singari Mutafakkirlarda hissiyot ko'pu fikr yo'q, degan gap emas. Fikr hissiyotsiz, hissiyot ma'lum tasavvursiz bo'lmaydi. Cho'lpon hissiyotlari uning doimiy va uzluksiz o'ylarining, dard va kechinmalarining, tafakkur to'lg'oqlarining ifodasi sifatida ko'rinadi. Uning fikru zikri o'lka, xalq, Sharqu G'arb tarixi, taqdiri, istiqboli bilan band. Binobarin, u qanday kayfiyatda, qaysi mavzu yoki kechinmalarni ifodalashga bel bog'lamasin, tili ona tabiat va jafokash diyor, mushfik xalqi va uning erki, istiqboli xususida so'zlardi. Ishq – muhabbat mavzusiga qo'l urganda ham obrazlar silsilasi maysalar ustida tebranib, ko'k qa'riga botib ketsa-da, yulduz kabi uzoq tursa-da aylanib-aylanib erdagi odamlar qismati, sharq va vatan istiqboli haqidagi orzularga kelib qo'shilib ketadi.

Buzilgan, vayronaga aylangan, talon-taroj bo'lgan, qarg'alar, kalxatlar uya qura boshlagan yurtni ozod qilish, kelajagi haqida qayg'urish doimo Cho'lponning diqqat markazida turdi. «Ozodlik uning xayoli, oromini o'g'irladi, – deb yozadi I.G'afurov, – u butun hayotini ozodlikka bag'ishladi. Ozodlik Cho'lponni ozod qildi. Cho'lponning ozodlik orzusidan ham, ozodlik fikridan holi bir qator so'zi yo'q, bir dona she'ri yo'q. Uning muhabbat haqidagi eng intim, eng tuyg'uli she'rlarida ham ozodlik, ozod inson haqidagi fikr markazda turadi»². Ozod Sharafiddinov ham bu fikrni tasdiqlaydi: «Erkin kuylash, adolat va tenglikni ulug'lash, har qanday kamsitishlar, fakir ko'rinishlarni qoralash, zulmni la'natlash,

¹ Махмудов Т., Зайниддинова З. Чўлпон – романтик шоир // Санъат. –Тошкент, 1991. -№10. – 4 б.

² Гафуров И.. Нега шоирлар девона бўладилар? «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 1991 йил, 21-май.

inson tuyg'ularini tarannum etish, uni e'zozlashga chaqirish Cho'lpon she'riyatining asl mohiyatini tashkil qiladi. Xuddi Shu insonparvarlik jihatlari bilan Cho'lpon butun bir xalqning milliy uyg'onishiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Ijodining ana shu umumbashariy yo'nalishi bilan Cho'lpon XX asrning atoqli Mutafakkirlari qatoridan o'rin oldi»¹.

Cho'lpon poeziyasida inson va uning erki barcha ijtimoiy masalalar markazida turishi ehtirosli misralarda o'z ifodasini topdi. Uning poeziyasida qadrdon o'lka, jonajon xalqni xuddi tabiat singari erkin va ko'rkam ko'rish orzusi mujassam. Azaliy va abadiy tabiatning o'z tabiiy qonuniyatlari mavjud: fasllar ketidan fasllar kelishi, quyosh chiqib, kun botishi va tabiatdagi bunday ixtiyoriy erkinlik inson qalbiga ham musaffo erkinlik va ozodlik nurlarini olib kiradi.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi bunday ma'naviy uyg'unlik ko'ngil xijillarini yozib, tasavvurdagi zanjir, kishanlarni parchalab tashlashga da'vat etilgan. Shuning uchun Mutafakkirning lirik qahramoni «quyuq bulut»larning tarqalishi, po'rtanalar shovqini, shamollar guvillashi, ko'klamoyning go'zal libosga burkanishlarida falsafiy bir o'y tuyadi, ya'ni elu yurt osmoni beg'ubor bo'larmikan, kishanlar parchalanib, odamlar boshqalarga bo'yin egmay, inson bo'lib hayot kechirarmikan, deb orzu qiladi.

Cho'lponning elu yurt ozodligi, erkinligi haqidagi o'ylari bevosita o'zbek xotin-qizlarining taqdiri bilan ham bog'liq. Erkini boy bergan Sharqning tutqun qizi obrazi Cho'lpon poeziyasida asosiy qahramon bo'lib gavdalanadi.

Lirik qahramon ko'nglida yig'layotgan malaklar kimlar, Sharq onalarimi, juvonlarimi, yo qullar o'lkasining insonlarimi? Lirik qahramon dilini vayron etgan tovushlar nainki o'tgan asrlarning yig'i ohangi, balki «mangu tutqunlikka kirgan o'lka» ayollarining dodu faryodidir.

Izg'irinli qishlar o'tib, kelmish chiroyli bahor; gullarning nozlanib-nozlanib ochilishiga qarab qushlar sayrab qolganda bulbul singari; dalada er beti ko'm-ko'k duxobadan ko'ylaklar kiyib, tong sabosi kelinlar labidan olganda bo'sa; dunyo

¹ Шарафиддинов О. Маънавий камолот йўлларида. –Тошкент: Маънавият, 2001. – 201 б.

ko‘z ochib, rohat quchog‘iga kirganda ko‘ngil, chollar ham kampirin chorlab yoniga, issiq nigohida erkalaganda Sharq qizlarining ko‘nglida nelar kechadi?

Cho‘lpon she‘riyatining g‘oyaviy-falsafiy kuchi Shundaki, u o‘z qalbida tug‘ilgan kechinmalar qurtagini atrofdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga, insoniy dard va orzularga payvand qiladi, singdiradi va bu ruhiy jarayondan o‘zi ham kuch olib yangi manzil, yangi mavzu, yangi tuyg‘ular sari intiladi. Cho‘lpon poeziyasi o‘quvchini loqayd qoldirmaydi, o‘zligini anglashga, o‘ziga o‘zi savol berishga, men erkinmanmi, nega, nima uchun degan savollarga javob izlashga majbur etadi.

Shuning uchun bahor takroran kelishi bilan tabiat manzaralari yashnab, yayrab ketganday Cho‘lpon she‘riyati ham har qachon o‘quvchi ko‘ngliga tushishi bilan uning ko‘nglini tog‘day ko‘taradi, unda erk va ozodlik gashtini his qilishga chaqiradi.

2.3 Cho‘lpon falsafasida xalqchillik va milliy o‘ziga xoslik masalasi

Falsafiy ijodiyotda xalqchillik turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: xalqning muayyan davrdagi ijtimoiy hayotida sodir bo‘layotgan tarixiy, milliy va ma‘naviy muammolarni ko‘tarib chiqish, unga munosabat bildirish, mamlakat ahvolining falsafiy in‘ikosini yaratish; millat tarixi va istiqboli bilan bog‘liq masalalardagi mushtaraklik va o‘ziga xos murakkab jarayonlar haqida fikr bildiruvchi obrazlar yaratish; vatanparvarlikni insonparvarlik maqomida, insonparvarlikni vatanparvarlik qudratida ko‘rish va tasvirlash; falsafiy asarlardagi xalqchil til, xalq uchun ardoqli va ibratli obrazlar, nozik tashbehlar, musiqiy nazokat, xalq an‘analari va go‘zallik haqidagi tasavvurlardan unumli foydalanish, xalq og‘zaki ijodidagi koinot va tabiat ko‘rinishlarini tiniq bo‘yoqlarda idrok etish, koinotni insoniylashtirish va inson siymosini barcha go‘zallik mezoniga aylantirish; hayotiy va xayoliy falsafiy obrazlar tizimini yaratishda ijodiy jarayonning eng murakkab va asosiy talabi bo‘lgan shakl va mazmun mushtarakligiga erishish.

XX asrda ko‘pchilik xalq ommasini savodxon qilish va ayni vaqtda yangilanayotgan zamonning munosib farzandlarini tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo‘yilgan edi. Rossiya va uning tobeligida yashovchi o‘nlab millatlarning

tutqin, turg'un hayotida ham qo'zg'alish boshlandi. Turkistonda ham qisqa muddatda o'zbek ma'rifatchilarining butun bir avlodi etishib chiqdi.

Jadid maorifchilari mamlakat rivoji, millatning taraqqiyoti, o'zlikni anglashda tarix va geografiya fanlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. Ular dinga emas, balki diniy aqidaparastlikka qarshi bo'ldilar. Xususan, M.Behbudiy faoliyatida tarix va geografiya muammolarini o'rganishga undash muhim ahamiyat kasb etdi. U barkamol shaxsni tarbiyalashda va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi. U «Tarix va jo'g'rofiya», «Turkiston tarixi», «Sart so'zi majhuldir» kabi asarlarida faqatgina Vatan tarixini emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida fikr yuritgan. Yangi usul maktablaridagi o'quv dasturi turkiy yoki forsiy tilda o'qish, yozish, arifmetika, tabiiyot, tarix, jo'g'rofiyani o'z ichiga olardi. Mazkur o'quv dasturi asosida o'quvchilar nisatan ancha keng bilimlarni egallardilar¹. Toshkentdagi madrasalardan birida dars beruvchi, Munavvarqori yangi dastur mualliflaridan biri bo'lgan. Dastur quyidagi fanlardan iborat edi: 1) diniy ta'limot, 2) muqaddas an'analar, 3) islom ta'limoti tarixi, 4) arab grammatikasi, 5) meros huquqi, 6) arifmetika, 7) butunjahon jo'g'rofiyasi, 8) islom tarixi, 9) muqaddas tarix, 10) arabiy va turkiy imlo.

Oktyabr to'ntarishidan keyingi ziddiyatlarga to'la yillarda Munavvarqori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy kabi ma'rifatparvarlar o'z pedagogik faoliyatlarini davom ettirib, darslik, risola va maqolalar chop ettirdilar. Maktablarda o'quvchilar sonining ortib borishi bilan, darsliklarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham kuchayib bordi.

O'zbekistonda o'quv-metodik talablarga javob beradigan darslik yaratish sohasida ilk qadamni ilg'or pedagog Saidrasul Aziziy qo'ydi. U 1902 yilda o'zbek tilida yangi «savtiya» usulida «Ustodi avval» alifbesini yaratdi. Albatta, birinchi darslik bo'lganligi uchun unda bir qator kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Shundan so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov 1907 yilda «Adibi avval»

¹ Турсунов И. Истиқлолга интилган қалблар нидоси. -Фарғона: Фарғона политехника институти босмаҳонаси, 1993. -138 б.

alifbe darsligini yaratdi. 1917 yilgacha Sayidrizo Alizodaning «Birinchii yil», Abdulvahob Ibodiyning «Tahsili alifbo», Rustambek Yusufbek o'g'lining «Ta'limi avval», Abdulla Avloniyning «Birinchii muallim» kabi bir qator alifbe darsliklari nashr qilindi va maktablarda o'qitildi. Bizgacha alifbe darsliklarining mazmuni va didaktik asoslari pedagogika fanlari nomzodi M.Inoyatovanning «O'zbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida¹ chuqur tahlil qilinganligi uchun alifbelarning didaktik qirralari haqida to'xtalishni zarur deb topmadik.

Ta'kidlash joizki, ma'rifatparvarlarning maktablarni o'quv qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlashga qaratilgan harakatlari ona tili, o'qish, geografiya, tarix fanlaridan ilk darsliklar yaratishga ham qaratilgan edi.

O'zbek ma'rifatparvari, savodsizlikni tugatishda faol ishtirok etgan o'qituvchi Muhammadrasul Rasuliy (1884-1935) 1907 yil 1 oktyabrdan boshlab Beshyog'och dahasidagi Arpapoya mahallasida 4-rus-tuzem maktabining o'zbekcha sinfida muallimlik faoliyati bilan Shug'ullangan bo'lib, 1917 yilgacha rus-tuzem maktablari, 1917 yildan keyin esa sovet maktablarida ishlagan. Uning bir qator darsliklari singari «Rahbari forsiy» darsligi ham Toshkentda bir necha marta (1911, 1914, 1917-yillarda) chop etilgan².

Darslikning birinchi nashrida ushbu kitob «Makotibi ibtidoiyaning 3-4-sinf shogirdlarina» mo'ljallanganligi ko'rsatilgan. Darslik o'quvchilarga forsi tilini o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, forsi tili grammatikasiga oid bir qancha masalalar bayonida o'zbek tili grammatikasiga doir masalalar ham yo'l-yo'lakay eslatib o'tilgan. Muallif ushbu darslikni tuzishda qiyosiy metoddan foydalangan.

M.Rasuliyning «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston», «Bolalar bog'chasi»³ nomli darsliklari ham mavjud. «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston» darsligi 1916 yil Toshkentda nashr qilingan. Darslikdan forsha qisqa hikoya va she'rlar o'rin olgan. Undagi mavzular 54 darsga taqsimlangan, ba'zi

¹ Иноятова М. Ўзбек алифбе дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари: Пед. фан. номзоди... автореф. -Тошкент: 2016. - 22 б.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. IV-том. -Тошкент: 2002. -199 б.

³ Расулий М. Болалар бог'часи. Дарслик. - Тошент: Азия, 1997.-48б.

forscha soʻzlarga oʻzbekcha izoh berilgan. Darslikda koʻrgazmalilik tamoyiliga amal qilinib, oʻquv material mazmuniga koʻra turli rasmlardan foydalanilgan. Undagi baʼzi hikoyalar ruschadan tarjima qilingan. Masalan: «Bobo ila nabira», «Qoʻrqoq», «Aqlli qishloqi» va h.

Muhammad Rasul Rasuliyning «Bolalar bogʻchasi» darsligi ham mavjud boʻlib, u eski oʻzbek yozuvida nashr etilgan. Darslik 1917 yil Toshkentda «Osiyo» nashriyotida chop qilingan boʻlib, 48 betdan iborat. Darslikning birinchi betida dastlab muallifning ism-sharifi, kitobning nomi rus va yoki oʻzbek yozuvida berilgan. Uning dastlabki sahifasida quyidagi gaplar mavjud: «Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardan olinub, ochuq til va engil tartiblar ila yozilmish musavvar (rasmli) qiroat kitobidir. Noshiri Turkiston kutubxonasi. Takror tabaa noshirlar shirkatila murattabiga (tartibga keltirilgan) maxsus, ikkinchi taʼbi (nashri), 1336-hijriy-qamariy, 1917 melodiy-shamsiy».

Darslik boshlangʻich sinflar uchun oʻqish kitobi hisoblangan. Ushbu rasimli darslikdagi hikoyalar bir-birini mazmunan toʻldirib, boyitib boradi. Darslikda Sharq anʼanaviy uslubi qoʻllanilib, hikoyalar nihoyasida baytlar berilgan. Har bir hikoya tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlib, bolalar yoshi va dunyoqarashiga mos sodda bayon uslubida yozilgan. Darslikda integratsiya tamoyillaridan unumli foydalanilgan boʻlib, unda bolalarni axloq-odobga oʻrgatish, turli fan sohalaridan boshlangʻich maʼlumotlar berishga harakat qilingan. Ushbu darslik oʻquvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan diqqatga molikdir.

Taniqli adib Sadriddin Ayniy «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») oʻqish kitobini tuzgan boʻlib, uning birinchi nashri 1909; ikkinchi nashri 1917 yilda chop etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega boʻlib, oʻquv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni oʻquvchilar yoshiga mos. Oʻsha zamon sharoiti va talablariga koʻra,

kitobda diniy ma'lumotlar ham berilgan.¹ «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo'y va vijdonli bo'lishga da'vat etadi: «Axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg'on gapirmaydi. Hamma vaqt chin so'z bo'ladi...Rostgo'y bola hech vaqt yolg'on gapirmaydi. Hech kimga ziyon etkizmaydi...Maktabda yoki yo'lda biron narsa topsa, uni albatta egasiga qaytarib beradi», - deya bolalarni axloqli, rostgo'y inson bo'lishga undadi. Uning fikricha, rostgo'y bola kishilar va

o'rtoqlari orasida katta obro'ga ega bo'lib, yolg'onchi bola esa obro'siz bo'ladi. «Yo'ldosh degan bola maktabga bordi, birinchi sinfda alifbe o'qirdi. Lekin yolg'onchi edi. O'qituvchi nasihatlariga quloq solmadi. Natijada maktabdan haydaldi. Yolg'onchi bo'lganligi uchun hech kim uni hurmat qilmas edi», - deb yozadi muallif.

S.Ayniy darslikda: «O'qish yo'lida g'ayrat qil! Odam bo'l. Keyin kuching boricha o'z Vatanningga, o'z xalqingga va o'z millatingga xizmat qil» deb o'quvchilarni ilimli bo'lishga chaqirdi, Shu bilan ularda milliy iftixorni shakllantirishga harakat qildi.

Bolaning shakllanishida oila tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o'quvchilar hayotida ro'y bergan voqea misolida o'quvchilarni halol bo'lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiyasi, onaning namunasi katta o'rin tutishini ko'rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o'tkinchi kishi qopchig'ini tushirganini ko'rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko'rsatdi. Onasi achchiqlanib aytdi: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o'rtoqlaring orasida seni o'g'ri deb e'lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi».

Cho'lpon ijodining xalqchilligi yuqorida ko'rsatilgan mezonlarning deyarli barchasiga javob berishi bilan birga, yana o'ziga xos jilolari va bo'yoqlari orqali ajralib turadi. Cho'lponning o'z xalqi hamda Vatani bilan chirmashib ketgan yuragida dardli armon qoni gupillab turgan. U xalqi va Vatanini ozod, erkin,

¹ Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. М. М. Хайруллаев таҳрири остида. -Т.: Ўзбекистон, 1995.-240б.

baxtiyor ko‘rish orzusi bilan yonib qul bo‘lgan mutafakkir. «Cho‘lpon, – deb yozadi Ozod SHarafiddinov, – o‘zbek she‘riyatining tarixida yangi sahifa ochdi va bunga she‘rlarining isyonkor ruhi bilan, umuminsoniy g‘oyalarni hayqirib kuylagani bilan, xalq dardini qimtinmay baralla aytish bilan erishdi»¹.

Cho‘lpon poeziyasi xalqchilligi va milliyligini belgilovchi mavzu, motiv va jihatlar xilma-xil. Biz ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz, xolos. Masalan, mutafakkir yashagan davrda yoshlarning savodi va istiqboli, o‘zbek xotin-qizlarining taqdiri masalasi millat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammo edi.

Xotin-qizlar olami, taqdiri va nafosatiga bag‘ishlangan she‘rlarda Cho‘lpon tabiat mo‘‘jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg‘ab oladi va shox satrlarga joylaydi. «Sharq qizi», «Men va boshqalar», «Qiz qo‘shig‘i», «Er asiralari», «Paranji», «Kelinchak», «Zangbuning qizi» kabi she‘rlar bunga yorqin misol bo‘ladi.

«Sharq qizi»da bahorday tovlanib, o‘sib, ulg‘ayib, bu jozibali hayotga entikib, qimtinib, iymenib kirib kelayotgan, Shu bilan birga, peshonasi sho‘r, baxti qaro, quloqlariga bahor gullaridan isirg‘a taqqan tortinchoq qizning go‘zal siymosi gavdalansa, «Men va boshqalar»da hayot zarbasidan ko‘zi ochila boshlagan, vujudida allaqanday isyonga o‘xshash kechinmalar sezib, portlab ketishga tayyor pokiza qizning dil nidolari eshitiladi.

«Qiz qo‘shig‘i»ning ma‘no jihatidan xalq yuragiga yaqinligi, ohang jihatidan xalq laparlari, termalari ruhida yozilishi, unda o‘ksigan ko‘ngillarning erkin nafas olishga bo‘lgan intilishlari qush qanotlari singari samoviy parvoz engilligini eslatadi. «Qiz qo‘shig‘i» nihoyatda tabiiyligi, sodda va samimiyligi bilan xalq qalbini zabt etuvchi nihoyatda xalqchil asar:

Ko‘z yoshimda yuvsam,
Yurtning bag‘rini.
Tilim bilan so‘rmas,
Oqqan qonini...

¹ Шарафиддинов О. Маънавий камолот йўлларида. -Тошкент: Маънавият, 2001. – 197 б.

O'zbek xotin-qizlari taqdiriga xos achchiq haqiqatlar, armon to'la orzular, hayot sari intiqlik va nazokat tuyg'ulari bu she'rda o'z ifodasini topgan.

Qizning dardi ichida. U o'zi sevib erga tegmagan. Shuning uchun u oynaga qarab, o'ziga o'zi mahliyo bo'lar ekan, «Shu erga tegdim, qaddimni egdim, o'lganim ortiq!» deb iztirob chekadi.

Cho'lponning obraz yaratish mahorati Shunchalik tabiiy va go'zalki, u yuragi armonga to'lgan kelinchak qiyofasini yorqin tasvirlash bilan barobar uning yuragi pok va beg'ubor ekanligini, qarg'ish va noroziliklarida o'ziga xos xazilga yo'g'rilgan, kinoyani eslatuvchi iljayishni ko'ramiz:

Har kuni ertalab,

Bir talay g'azab

Er o'lguridan.

Kunduz nag'masi,

Qayinonasi –

Ko'milguridan ...

Bunday sodda va beozor norozilik tuyg'ulari Mutafakkir she'ridagi xalqchillik va dardchillikni yanada oshirib yuboradi.

O'zbek xotin-qizlarining chinakam ozodlikka chiqishi, erkin qush kabi parvoz etishi, o'zining tabiiy go'zalligini paranji ostida yashirmay, ochilib-ochilib yurishini mutafakkir orzu qiladi, qizlarni, qizga o'xshash juvonlarni ko'klam chog'i, oy to'lgan, yulduz kulgan kechalarda ko'rishni, ularga bir dasta gul berib, zavqlarga to'lishini, yulduzlardan nur olib, Shu'lalarga burkunishini istaydi.

Cho'lpon uchun o'zbek xotin-qizlarining paranji tashlashi, bir tomondan, o'z tabiiy husnu jamolini namoyish etish, inson sifatida qaddini tik tutish bo'lsa, ikkinchidan, ozodlikka chiqish, erkinlikni qo'lga kiritish edi.

Cho'lpon 1922 yili betob bo'lib, Buxoro harbiy xastaxonasida davolanadi. O'sha paytlarda u qator she'rlar yozadi. She'rlardagi ayrim ruhiy tushkunlik va og'ir kayfiyatni bemorlik alomatlari bilan izohlash biryoqlama fikr yuritish bo'lur edi. Aksincha xuddi mana Shunday xastalik paytlarida inson boshqa vaqtda har tomonlama o'ylash, fikr qilish va xulosa chiqarishga ulgura olmagan narsalari,

hodisalar haqida bir to'xtamga kelishi, yuragiga, ko'ngliga yaqin mulohazalarga kelishi mumkin. Ba'zi bir mulohazalar inson umri, niyati va dunyoqarashini ifodalashda katta ahamiyat va ma'no kasb etib qoladi. «Kulmak istading», «Yotoqdan», «Qizarish» singari she'rlari, «Og'riganda» she'rida bildirilgan «bo'g'iq, qisiq, asabiy bir ko'ngil» tunu kun to'shakda, o'ylar orasida ingrab yotganday tuyuladi. Mutafakkir «og'ir», «qiyin» bu yotishning so'nggida tong otishiga umidvor.

Cho'lpon poeziyasining milliyliги yurt osmonidagi qora bulutlarning qonli yoshlar yog'dirishi va lirik qahramon tasavvurlarining o'lka dardi va tashvishlari bilan jonlanishini yuksak falsafiy mahorat orqali tasvirlab berishida ko'zga tashlanadi.

Mutafakkir o'z xalqiga, uning taqdiriga bo'lgan munosabatini chaqiriq va baqiriq ohanglarda emas, ona yurtning jonkuyar farzandi sifatida o'rtanib, kuyunib, to'lg'anib izhor etadi. Mana Shunday elga, yurtga pokiza va samimiy muhabbat, o'z navbatida, xalq mehriga va ardog'iga munosib qo'shiq bo'lib jaranglaydi.

Cho'lponning boy badiiyati xalqimiz tarixi, taqdiri va an'analari bilan uzviy bog'liq. Mutafakkirning lirik qahramoni ayrim she'rlarda xalq bilan yonma-yon turib kuyub, yonadi, ayrim o'rinlarda o'lka osmonida to'plangan qora ko'lankalarni chaqmoq yanglig' tilka-pora qilishga jazm qiladi, boshqa joyda xalq ijodiyotining qadim-qadim xirgoyilarini yodga soladi. Xalq og'zaki ijodiyotidagi soddalik, laparlardagi engil yumoristik qochiriq va xazin munglilikdan tashqari «Devonu lug'otit turk»dagi termalar ohanglarini eslatuvchi misralarni o'qiymiz:

Keng dalada kiyik o'ynar,

Kiyik ko'zin yigit o'ynar,

Kiyik ko'zi ko'ngil tortar,

Oshiq ko'rsa dardi ortar.

To'g'ri, asarning xalqchil bo'lishida mavzu asosiy rollardan birini egallaydi. Mavzu bevosita xalq va uning taqdiri, yoxud orzu armonlari bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Asarni xalqchil va xalq qalbiga yaqin qiladigan omil – bu mutafakkirning tabiati va talantidir. Ko'z o'ngida xalq va uning falsafiy-falsafiy

ideali, ehtiyoji va dardi turgan mutafakkir asariga o'ziga xos yo'l va usul bilan xalq ruhi, xalqchillik va milliylik nafasi muhrlanib qoladi.

Haqiqiy ijodkor qaysi mavzuni tanlmasin o'z asarining g'oyaviy-falsafiy yo'nalishini belgilovchi mezon qilib xalq ma'naviyatini olsa, xalq qalbiga etib boruvchi tasviriy vosita tillaridan foydalansa chinakam xalqchillik yaratilishiga zamin hozirlaydi. Dolzarb siyosiy voqealarni she'rga solish, rasmiy axborotlar va chaqiriqlar ketidan quvish, xalq nomidan xalqqa qarata qanchalik kuchanib nolalar qilinmasin bunday asarlar chinakam xalqchillikdan uzoq bo'ladi. Tasvirga tushayotgan mavzu, lavha, kayfiyat, xayol va hayot xalq ruhi va taqdiriga uzviy ulangan taqdirdagina yuksak ijtimoiy-tarixiy, insoniy-milliy va falsafiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, bahor haqida deyarli barcha Mutafakkirlar she'r yaratishgan. Lekin Cho'lpon qalamiga mansub bahor taronalari buyuk bir ko'klam simfoniyasi bo'lib jaranglaydi. mutafakkir bahorning boshlanishini butun olam ko'k libos kiyaboshlagan ajib bir pallada ko'radi. Endigina oxirgi qorlar erib, er yuragi gup-gup ura boshlagan, ariqlarda suvlar chuldirab qolgan pallada «ko'klamoyim yo'lga chiqqan».

Tazod usulida obraz yaratish Cho'lpon ijodida Shunday kuchliki, u jonsiz narsalarga jon bag'ishlaydi, ko'katlardan til chiqaradi, ariqlardan kuylar oqib o'tadi, insoniy tuyg'ular eladi-yuguradi. Ana shu tariqa Mutafakkir ijodida poetik mo'jiza paydo bo'ladi. Shu bilan birga, tazod usuli xalq og'zaki ijodi an'alariga, xalq tasavvuri va obrazlar dunyosiga yaqin va sevimli falsafiy-ma'naviy xazina ekanligi qayd etiladi.

Tabiat go'zalliklari, eru osmon bag'riga yashiringan falsafiy gavharlar bir-birini inkor va iqror etuvchi, tasdiqlovchi va to'ldiruvchi musiqiy aks-sadoday jaranglaydi:

Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,
Qora erning boshlarini silab-silab keladir,
U silashdan, u siypashdan quvvat olib, kuch olib,
Qora er ham ko'ksidagi oltinlarni beradir.

Cho'lpon xuddi musavvir kabi o'z tasavvuridagi «Ko'klamoy» obrazini Shunday nafis bo'yoqlarda, tashbeh va obrazlarda chizadiki, o'quvchi ko'z o'ngida butun tabiat er uzra etaklarini sudrab kelayotgan go'zal kelinchak bo'lib gavdalanadi va natijada «Ko'klam keladir!» she'ri mutafakkirning romantik ehtiros bilan yaratilgan benazir mo'jiza asari bo'lib qoladi.

Bu she'rning xalqchilligi bahor fasli bilan bog'liq xalq ruhi va dilida nish uradigan, uyg'onadigan va chapak chalib gullaydigan quvonch, zavq-shavq, muhabbat tuyg'ularini mahorat bilan ifoda etilishida ko'rinadi.

Har qanday Mutafakkir, avvalo, tirik odam. Uning ham boshqalar kabi dardi, tashvishi, quvonchu zavqi mavjud. Uning-da ideali bor, intilish va orzu umidi mavjud, faqat mutafakkir idealining farqi shundaki, uning falsafiy-falsafiy ideali ijtimoiy – ideali bilan, ijtimoiy ahvoli falsafiy niyati bilan chirmashib ketgan bo'ladi. Birini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy ideal mutafakkir falsafiy idealining hayotlashuv, insoniylashuviga yordam beradi. Falsafiy ideal esa iloji boricha ijtimoiy idealni go'zallashtirishga harakat qiladi.

Mutafakkirning falsafiy ideali uning barcha asarlarida bevosita yoki bilvosita aks etadi. Shuning uchun san'atkor hayoti va dunyoqarashini uning asarlari mazmuni, yo'nalishi, ohangi va ruhidan sezish mumkin. Mutafakkir falsafiy idealining ro'y-rost ifodalanishi o'lka jamoli va xalq kamoliga bog'liq. Vatan obod va ozod – mutafakkir qalbi chapak cholg'uchidir, o'lka osmoniga bulut qo'nsa, mutafakkir qalbi yum-yum yig'laguvchidir.

«Qalandar ishq» g'azalini mana Shu tarzda o'qish falsafiy asarga biryoqlama qarash va o'ta zamonaviylashtirishdir. She'rga bugungi kun ijtimoiy-siyosiy muhit talablaridan kelib chiqib emas, o'z ichki falsafiy-falsafiy mohiyati nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, unda real va hayotiy insoniy kechinmalar to'lqiniga duch kelamiz.

She'rda xazil bir o'ksinish kayfiyati hukmron. Lirik qahramon o'z muhabbati, sevgisi tufayli chuqur iztirobga tushadi, o'zi bilan o'z gaplashayotganday, o'z ruhiyatida sodir bo'lgan kayfiyatlar sababi va oqibatini tushunib etishga harakat qilayotganday tuyuladi. Lirik qahramon o'z ahvolini sirtdan emas, go'yo

ichkaridan kuzatib borayotganday, o'z ma'naviy dunyosida kechayotgan hodisalarga javob izlayotganday bo'ladi.

She'rni o'qigan odam tasavvurida majoziy va ramziy obrazlar emas, aniq va jonli inson iztiroblari gavdalanadi.

Mutafakkirning mahorati shundaki, u so'z o'yini, raqsi va jozibasini xazin tuyg'ularga o'ralgan ramzlar bilan barobar olib boradi, she'rning har bir bandi xalq tasavvuri va milliy tafakkur jilolari bilan yoritilgan. Unda sharq poeziyasining botiniy mazmunini belgilovchi, poetik ishoralar orqali ifodalanuvchi ichki hayot, ma'naviy poklik va imonli iqrar tuyg'ulari mujassamlashgan. Garchi g'azal obrazli mubolag'a va falsafiy-falsafiy tavsiflar bilan to'la bo'lsa-da, u nihoyatda hayotiyli va xalqchilligi, milliyli bilan ajralib turadi. O'quvchi ko'z o'ngida afsonaviy yohud xayoliy muhabbat emas, hayotiy va ma'naviy yuksaklik bilan yo'g'rilgan sevgi iztiroblari o'z ifodasini topgan.

Cho'lpon she'riyatida lirik qahramonning nozik, kamtarin va ulug'vor ruhiy evrilish holatlari aks etadi. Uzoq-uzoqlardagi yulduzlar, mungli nur bag'rida to'lg'ongan oy, tong sabosining sirli shivirlashi, bahor elchilari – ko'm-ko'k maysalarning mastona-mastona tebranishi va hokazolar hayotiy, ayni choqda, ilohiy go'zallik ramzi bo'lib tasvirlanadi. Lirik qahramon ulug'vor tuyg'ularga burkangan inson qiyofasida gavdalanadi. Xayoliy olamdagi hayotiy go'zallikni ko'rish, oddiylikda ilohiy bir ulug'vorlikni sezish, tuyg'ular samimiyatidagi tantilik va hayot nash'asidan erkanish ohanglari Cho'lpon poeziyasi xalqchilligini belgilovchi asosiy g'oyaviy-falsafiy leytmotivga aylanadi.

XULOSA

Xalqimiz ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodini g'oyaviy tafakkurning o'ziga xos g'oyaviy-ma'naviy in'ikosi deyish mumkin. Zero, ma'rifatchilik harakati va jadid adabiyoti Turkistonning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida tarixiy vazifani bajardi. Bu davrda madaniy jarayonning mavzu doiralari kengaydi, bevosita millat va mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq voqealarni aks ettira boshladi.

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-tarixiy muhit yangicha fikrlaydigan, millat va mamlakat taqdiriga befarq qaramaydigan ijodkorlarni shakllantirdi. Cho'lpon ana shu muhitda ulg'ayib, so'ngra o'zining yangi ijodiy yo'li va obrazlar dunyosiga hamda mustaqil ma'naviy qarashlariga ega bo'lgan ijodkor sifatida namoyon bo'ldi. U o'zbek xalqining XX asr birinchi yarmida ijod qilgan adiblari orasida original falsafiy ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tarixda qoldi, sharq va g'arb falsafiy tafakkurining romantik chashmalaridan bahramand bo'lgani holda falsafiy ijodda serqirra va sermazmun ma'naviy meros qoldirdi.

Cho'lpon ilmiy-ma'rifiy merosimiz uchun «Kecha va kunduz» singari ajoyib roman, «Yorqinoy» kabi romantik drama qoldirgan bo'lsada, u asosan, ruhiyat mutafakkiri, orzular kuychisi, erksevar adib sifatida mashhurdir. Uning falsafiy qarashlari asosan poeziyasida, ijodiy uslubidagi romantik tasvir vositalari esa erk, istiqlol, ozodlik kabi ulug'vor g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy faoliyatida aks etadi.

Cho'lpon qarashlarining nazariy-g'oyaviy asoslari jadid-ma'rifatchilik harakatining asosiy maqsadlari bilan uyg'un bo'lib, uning ijodkor sifatida shakllanishidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar hamda g'oyaviy tamoyillari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Birinchidan, Abdulhamid Cho'lpon sharq mumtoz she'riyatida aks etgan voqelikdagi ruh, tuyg'u va g'oyalar ifodasini ramziy obrazlar, tashbehlar va

tasvirlar orqali berishga asoslangan romantik ifoda uslubini XX asr ijtimoiy-tarixiy voqealarini aks ettirishda qo'lladi va bu uslubda original asarlar yaratishga erishdi.

Ikkinchidan, Cho'lpon «sharq» atamasidan umumlashma obraz sifatida, ya'ni mustamlakachilikdan azob chekayotgan mamlakatlar, xususan, Turkiston taqdiri va ahvolini ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tasvirlash vositasi sifatida foydalanadi. Xuddi shuningdek, «G'arb» ham ko'hna sharqni xo'rlayotgan obraz sifatida ta'riflanadi. Mutafakkirning sharq va g'arbga bag'ishlagan she'rlarida romantik uslubga xos tasvirlashdan ko'ra, ta'kidlash tamoyili ustuvorroqdir.

Uchinchidan, «Sharq» va «G'arb» obrazlariga bag'ishlangan she'rlarining romantik uslubida mutafakkirning vatanparvarlik jasorati, xususan, sharq timsolidagi Turkiston xalqlarining iztirobi va mustaqillik uchun kurashga chorlovchi chaqiriqlar poetik ohang va ijtimoiy-g'oyaviy g'oyalar bilan yo'g'rilgan.

To'rtinchidan, Cho'lpon ijtimoiy-g'oyaviy olami tor mahalliychilik va millatchilikdan ko'ra, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, uni jahon falsafiy madaniyatidan bahramand etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. U madaniyatlar taraqqiyotidagi eng asosiy tamoyil – bu xalqlar va mamlakatlar milliy merosining o'zaro ta'siri va boyishidir, deb bildi. Zero, Shekspirning shoh asari «Gamlet» ning Cho'lpon tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi buning isbotidir.

Ushbu xulosalar asosida dissertatsiya natijalaridan foydalanish bo'yicha quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Cho'lpon chet ellardagi san'at taraqqiyoti, ayniqsa, Moskva ijtimoiy muhiti bilan yaqindan tanish bo'lgani holda Meyyorxold teatrini yangi davrning yangi teatri, istiqbol san'ati sifatida e'tirof etadi. Binobarin, Cho'lpon 20-yillardayoq ijod individualligi va uslubiy rang-barangligini chinakam ijodkor nuqtai nazaridan idrok qiladi. Mazkur masalaning ijtimoiy-g'oyaviy qimmati esa teatr tarixi rivoji uchun ahamiyatlidir. Shu bois Cho'lponing obraz yaratishdagi mahoratini o'rganish bugungi kunda dramaturgiya sohasini rivojlantirishda samarali natija berishi mumkin.

2. Cho‘lpon poeziyasi hayot va go‘zallik, erk va ozodlik singari ezgu orzularni ifodalaydi. Cho‘lpon she‘riyatida chinakam poetik-romantik ruh va olijanob inson orzu-umidlari in‘ikos etgan. Mutafakkir ma‘naviy olami o‘zining romantik ulug‘vorligi va gumanizmi bilan ajralib turadi. Shu bois ta‘lim muassasalarida Cho‘lpon ijodining g‘oyaviy tamoyillarini kengroq o‘rganish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

3. Cho‘lpon poetik san‘atining xalqchilligi uning xalq ruhiga, tafakkuriga yaqinligidadir. Uning poeziyasi siyqa tashbehlardan yiroqligi, barchaning ijtimoiy-falsafiy tasavvurlariga birdek ta‘sir etishi bilan xarakterlidir. Ayniqsa xotin-qizlar masalasiga bag‘ishlangan she‘rlari xalq laparlari, termalari ruhida yozilgan bo‘lib, ularning asosiy ijtimoiy-falsafiy motivi inson erki, baxti va saodatiga asoslanadi. Bu ma‘rifiy g‘oyani barkamol avlodni tarbiyalashga doir olib borilayotgan ishlarning mazmuniga singdirish va bu borda amaliy tadbirlar rejasini ishlab chiqish ta‘lim bilan tarbiyani uzviyligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Cho‘lpon an‘anaviy usulidan foydalanib tabiat manzaralariga bag‘ishlangan she‘rlari orqali XX asr o‘zbek she‘riyatiga yangilik kiritdi. Bu she‘riyatning g‘oyaviy-badiiy ramzi bo‘lgan mutafakkirning falsafiy ideali esa yurt go‘zalligi va xalq kamoloti bilan bog‘liq bo‘lganligidan dalolat beradi. San‘at turlarining o‘zaro integratsiyasi kuzatilayotgan bugungi globallaShuv davrida ijtimoiy jarayonlarini tashkil etish va yo‘lga qo‘yishda mutafakkirning yuqoridagi qarashlarini asos sifatida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

Rahbariy adabiyotlat:

1. Каримов И.А. Жахон молиявий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари . - Т.: “Ўзбекистон” , 2009.
2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. - Т.: “Ўзбекистон” , 2009. - 40 б.
3. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябр. – Т.: “Ўзбекистон” , 2010. - 56 б.
5. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. - Т.: “Ўзбекистон”, 2011.- 48 б.
6. Каримов И.А. Буюк ва муқаддасан мустақил ватан. Ўзбекистон мустақиллигининг 20 йиллигига бағишланган маъруза. - Т.: “Ўзбекистон” , 2011.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. - Т.: “Маънавият” , 2011. - 176 б.
8. Каримов И.А.Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: “Ўзбекистон”, 2012.- 440б.
9. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. “Ўзбекистон”, 2017.

Normativ-huquqiy hujjarlar:

10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2014. - 160 б.

11. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни. Тошкент 1997 - йил, 29-август
12. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент 1997 - йил, 29 – август

O`quv va ilmiy metodik adabiyotlar:

13. Большая Советская энциклопедия. –М.: 1934. – 684 с.
14. Собиров Т.. Ўзбек совет драматургияси. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
15. Раҳмат Мажидий. Истеъдод ва бурч. –Тошкент: Меҳнат нашриёти, 1974.
16. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат манзиллари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
17. Қаршибоев Муртазо. Чўлпоннинг фаолияти // Санъат. –Тошкент, 1990. - № 8.
18. Қаршибоев Муртазо. Муҳит эркидаги тутқинлик // Шарқ Юлдузи. – Тошкент, 1990. -№10.
19. Шарафиддинов О. Чўлпон. Мутафаккир ҳақидаги ривоятлар ва ҳақиқатлар. -Тошкент: Чўлпон, 1991.
20. Чўлпон. Адабиёт надур? Нашрга тайёрловчи: Рустам Тожибоев. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.
21. Владимирова Н. Чўлпон ҳикоянавис. Чўлпоннинг бадиий олами. – Тошкент: нашриёт, 1994.
22. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. -Тошкент: Ёзувчи, 1994.
23. Турдиев Ш. Чўлпон ва адабий алоқалар. Чўлпоннинг бадиий олами. – Тошкент: нашриёт, 1994.
24. Йўлдошев Н. Чўлпон шеъриятида пейзаж. Дис ... филол. фан. ном. – Тошкент, Тил ва адабиёт институти, 1994.
25. Жалолов А.А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XX аср охири ва XX аср бошлари). Автореф. дис ... филол. фан. докт. –Тошкент: ТошДУ, 1994.

26. Чўлпон. Яна олдим созимни. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. -237 б.
27. Чўлпон. Яна олдим созимни. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
28. Мамажонов С. Чўлпоннинг насрий ва дарматургик ижоди. Чўлпоннинг бадиий олами. –Тошкент: нашриёт, 1994.
29. Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон. -Тошкент: Ёзувчи, 1997.
30. Тўлаков Исмоил. Чўлпон маҳорати. Андижон: «Меҳр» нашриёти, 1997.
31. Қуронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. -Тошкент: Ўқитувчи 1997.
32. Ризаев Ш. Жадид драмаси. -Тошкент: Шарқ, 1997.
33. Қуронов Дилмурод. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
34. Шарафиддинов О. «Кулган бошқалардир, йиғлаган менман.» Чўлпон таржимаи ҳолида дастлабки чизгилар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
35. Қосимов Б. Истиқлол фидоийлари. Чўлпон. –Тошкент: Шарқ, 1999.
36. Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида): Дис ... фил. фан. ном. –Тошкент: 2000.
37. Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акционерлик компанияси Бош таҳририяти, 2004.
38. Қосимов Б. Миллий уйғониш адабиёти. –Тошкент: Шарқ, 2004.
39. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. -Тошкент: Шарқ, 2004.
40. Яхшиликков Ж, Убайдуллаева Н. Жадидчилик ва Бехбудий. -Тошкент: Фан, 2004.
41. Маҳмудова Г. Жадидизм ва Туркистонда ахлоқий-фалсафий фикр тараққиёти. –Тошкент: «ДАВР ПРЕСС», 2006.
42. Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва фалсафий маданият. - Тошкент: Чашма принт, 2008.
43. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.

44. Абдулла Шер, Баҳодир Ҳусанов. Фалсафия. –Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010.
45. Қаршибоев Муртазо. Тўқайга ўт кетса... // Ёшлик. –Тошкент, 2012. - №11.
46. Ғафуров И. Нега Мутафаккирлар девона бўладилар? «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2014 йил, 21 май.

Internet saytlari:

47. www.ziynet.uz
48. www.uzbekkino.uz
49. www.gov.uz
50. www.xs.uz
51. [www: mfa. uz.](http://www.mfa.uz)
52. [www. manaviyat.uz.pak.uz](http://www.manaviyat.uz.pak.uz)
53. [www.info xs.uz.](http://www.info xs.uz)
54. www.fikr.uz